

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

o‘zbek tili yo‘nalishi 448-guruh bitiruvchisi

Abdulhamidova Zohidaning

“Anvar Obidjon hajviyotida ijtimoiy masalalarning
yoritilishi”

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: A.Qayumov

Farg‘ona - 2013

Bitiruv-malakaviy ish kafedraning 2013 yil _____ dagi ____
yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ A.Sabirdinov.

Taqrizchi:

MUNDARIJA:

Kirish. Masalaning qo'yilishi va o'rganilishi.	4-9
Birinchi bob. Realistik hajviy obraz yaratish tamoiyllari	
1.1. Ijtimoiylik mohiyati	9-18
1.2. Hajviy obraz yaratish usullar.....	18-28
Ikkinchi bob. Hajviy she'rlarda badiiylik	
2.1. An'ana va novatorlik masalasi.....	28-39
2.2. Adib qissalarida hajviya va sarguzasht.....	39-49
Xulosa	50-53
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	53-54

KIRISH.

MASALANING QO‘YILISHI VA O‘RGANILISHI

Badiiy adabiyot insonning ruhiy faoliyati mahsuli bo‘lib, unda ijtimoiy hayot ta’sirida ijodkor ruhida yuz bergan turli o‘zgarishlar o‘z ifodasini topadi. Badiiy adabiyotni ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o‘zining ijodiy nazari yo‘naltirilgan borliq o‘z ongida o‘zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi. Bu esa mavjud ijtimoiy hayotda to‘plangan bilim, malaka, tajriba va ko‘nikmalarni avloddan-avlodga o‘tish imkonini beradi. Shunga ko‘ra, bizning ongimizdagi bilim va tasavvurlarning aksari ajdodlarimizdan qolgandir. Ya’ni, bugungi kun chaqalog‘ining ongida mavjud imkoniyatlar olis ajdodlar ongida mavjud imkoniyatlardan ancha yuksakdir. Bundan ko‘rinadiki, shakllanish jihatidan badiiy tafakkur ijtimoiy xarakterga ega, Bizda mavjud bilimlar va tasavvurlar o‘z ongimizning, miyamizninggina faoliyati bilan bog‘liq emas. Balki, boshqa odamlar bilan turli munosabatlar natijasida shakllangan imtimoiy butunlikdir. “Eng muhim birinchi masala ijodkor o‘zining ijtimoiy burchini qanday tushunizga bog‘liqdir. Nega deganda, adibning so‘zi, uning ijodiy mahsuli jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar zarur ekanlini barchamiz, avvalo shu sohaga kirib kelayotgan va shu sohada faoliyat olib borayotgan adiblarning o‘zi yaxshi anglab olishlari kerak”¹.

Ijtimoiylik deganda, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida o‘sha jamiyat a’zolarining ongida mavjud bo‘lgan borliq (olam, odam, jamiyat) haqidagi bilimlar, tasavvurlar asosidagi aloqa tushuniladi. Bunda, avvalo, ijtimoiy ong yetakchilik qiladi.

Ijtimoiy ong bevosita jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’rifiy taraqqiy darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aytaylik, ibtidoiy jamiyat kishisi bilan hozirgi zamon kishilari ongidagi olam va odam haqidagi bilimlar orasidagi farq yer bilan osmoncha.

¹ Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. // Шарқ Юлдузи. 2009 й. № 3, 7-бет.

Ijtimoiy ongni, ya'ni, dunyo haqidagi bilim va tasavvurlarni hosil qilish, boyitishga xizmat qiluvchi sohalarning bari ijtimoiy ong shakllari deb yuritiladi. badiiy adabiyot ham din, ilm-fan, san'at, axloq, huquq, siyosat kabi sohalar bilan birga ijtimoiy ong shakllari sanaladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida bu sohalarning qaysidir bittasi yetakchi mavqega ega bo'lishi, keyin yetakchilik boshqasiga o'tishi mumkin. Masalan, kishilik jamiyatining ilk pallalarida insonlarning tabiat hodisalarini anglashga intilishi natijasida yuzaga kelgan miqlar yetakchi mavqega ega edi. Aniqrog'i, miqlar u davrda ijtimoiy ongning asosiy shakli edi. Dunyoning, inson va boshqa jonzotlarning paydo bo'lishi, hayot va o'lim sirlari, tabiat hodisalarining sodir bo'lishi kabi inson bilishga qiziqqan masalalar miqlarda o'z ifodasini topgan. Albatta, miqlar qadim ajdodlarimizning bu masalalar mohiyatiga yetmaganini ko'rsatadi, biroq miqlarda ularning olam va odam haqidagi bilimlari — ijtimoiy onggi ifodalangani haqiqatdir. Keyinroq, antik jamiyatda falsafaning yetakchiligi kuzatilsa, o'rta asrlarga kelib ijtimoiy ong shakllari orasida din yetakchi mavqe egalladi. Zero, o'rta asrlarda olam va odam mohiyati diniy ta'limotlar asosida tushunildi va tushuntirildi. Insonning dunyo haqidagi bilimlarining chuqurlashuvi XYIII asrga kelib fanning yetakchiligini ta'minladi, endi ilmiy bilishning ahamiyati ortdi.

Ijtimoiy ong shakllarining keyingi davrlardagi, xususan, hozirgi holatiga nazar solsak, unda turlichalikka duch kelamiz. Zero, hozirda ularning bari parallel holda (umuman insoniyat miqyosida olsak, taraqqiyot darajasining turlichaligi bois mifologik tafakkurdan tortib to yuksak ilmiy bilishgacha) mavjud. Albatta, biz bu o'rinda insoniyatning ilg'orini, rivojlangan jamiyatlarni nazarga tutamiz va bu eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

Ijtimoiy ong shakllari orasida badiiy adabiyot va san'at borliqni badiiy obrazlar vositasida idrok etishi bilan farqlanadi. Xususan, badiiy adabiyot so'z vositasida ish ko'radi. So'z esa universal bilish va ifodalash vositasi sanaladi. So'z vositasida ish ko'rgani uchun ham badiiy adabiyotning badiiy bilish imkoniyatlari

anchayin keng: u hayotdagi turli muammolarni, uning turli jihatlarini badiiy tadqiq etish imkoniga ega.

Badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rnini tasavvur qilish uchun u bajarayotgan ijtimoiy vazifalar nimalardan iborat ekanligini ko'rib chiqish lozim. Badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi shuki, u insonni komillikka yetaklaydi, jamiyatni mukammallashtirishga xizmat qiladi. Ya'ni turli obntazlar yordamida badiiy ifodalaydi. Darhaqiqat, badiiy adabiyot insonni (demakki, jamiyatni) o'zgartirish orqali dunyoni o'zgartiradi. Negaki, badiiy adabiyot real voqelikni aks ettiribgina qo'ymaydi, u ideal asosida fikrlaydi, voqelikni ideal asosida qayta yaratadi, chinakam san'at asaridagi badiiy hukm idealdan kelib chiqqan holda chiqariladi. Ideal esa, ma'lumki, o'zida mukammal inson, mukammal jamiyat haqidagi tasavvurlarni, orzu-intilishlarni mujassam etadi. Ijodkor sog'ingan ideal badiiy asar orqali o'quvchiga, o'quvchilarga ko'chadi va, bilingki, ideal sog'inchini o'ziga yuqtirgan o'quvchi endi o'zgargan insondir. Inson(insonlar)dagi o'zgarish esa, tabiiyki, jamiyatdagi o'zgarishlarning asosidir. Demak, badiiy adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri jamiyatni ideal asosida qayta qurishdan iborat ekan. Bu esa adabiyotdagi eng kata ijtimoiy masaladir. Chunki badiiy asar da turli ijtimoiy davrdagi jamiyat tasviru turli yoritiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarning ijtimoiy mohiyati, badiiy asarda ijtimoiy masalalarning yoritilishi turli davrlarda o'rganilgan. Lekin insonning barcha faoliyati ijtimoiylik kasb etishini nazarda tutsak, badiiy adabiyotning ijtimoiy ahamiyati yanada ortadi. Chunki badiiy adabiyot insonni boshqa odamlar bilan, o'zi yashaydigan muhiti bilan birga yaratadi.

Aslida ham inson dunyoga kelgach, insonlardan ayro yashasa inson sifatida shakllana olmaydi. Bunga hayotda ancha-muncha misollar bor. Masalan, mashhur ingliz yozuvchi R.Kiplingning "Maugli", D.Defoning "Robinzo Kruzoning sarguzashtlari", Oqiljon Husanovning "Tog'da o'sgan bola" kabi asarlarini keltish mumkin.

Ijodkor badiiy asar yaratar ekan avvalo o‘zi ko‘rgan-kechirgan, his etgan hodisalar haqida yozadi. Bu esa undagi ijtimoiy dard bilan yuzaga chiqadi.

Yuqoridagi mulohazlardan kelib chiqib aytish mumkinki, badiiy adabiyot ijtimoiy malalaning yoritilish dolzarb muamodir. Uning tadqiqiga bag‘ishlangan qator ishla mavjud. Lekin bu bilan muammo yechimiga yetgani yo‘q. Chunki, har bir davrda turli ijtimoiy muhit va masalalar yuzaga keladiki, badiiy adabiyot ularni o‘quvchiga imkon qadar ochib berishga intiladi. Shu ma’noda, badiiy adabiyotdagi ijtimoiy masalarning aniq bir ijodkor Anvar Obidjon ijodi, aniqrog‘I hajviyoti misolida yoritish o‘zbek adabiyotshunosligidagi dolzarb muammolardan biridir.

Chunki Anvar Obidjon o‘zbek adabiyotiga o‘ziga xos badiiy ifoda, o‘ziga xos individual yechim olib kirgan adibdir. Shu paytgacha uning ko‘p qirrali adib, bolalar uchun ham, kattalar uchun ham qator qissalar, dostonlar, she’rlar, hikoyalar, piyessalar bitganligini bilamiz. Hozirga qadar uning “Ona Yer”(1974 yil), “Bahromning hikoyalari”(1980 yil), “Ey, Yorug‘ dunyo...”(1983 yil), Olovjon va uning do‘stlari(1983 yil), “Bezgakshamol”(1985), “Ketmagil”(1985), “Masxaraboz bola(1986 yil), “Akang qarag‘ay Gulmat”(1987), “Juda qiziq voqea”(1987), “Oltin yurakli avtobola”(1988), “Dahshatli Mehspolvon” (1989), “Yerliklar” (1990), “Alamazon va Gulmat hangomalari” (1991), “Ajoyibxona” (1993), “Meshpolvon janglari” (1994), “Alisher ila Husayin yoki uch don ova o‘g‘ri”(1996), “Alamazon va Gulmat”(1998), “Bezgakshamol-2”(2003), “Tanlagna she’rlar”(2006), “Baloga qolgan futbolchi”(2010) kabi 30 dan ortiq kitoblari chop etilgan.

Adibning ijodidi haqida filologiya fanlari nomzodi Rahmatulla Barakayev “Jonajonim she’riyat” nomli asarida, taniqli adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov “So‘z to‘lqinlari”, filologiya fanlari nomzodi Gulnoza Jo‘rayeva “O‘zbek bolalar adabiyotida hajviy obraz yaratish mahorati” nomli risolasida, olima Zamira Ibrohimova esa “Quvnoqlikka yashingan iztiroblar” nomli risolasida. Adabiyotshunos Hulkar Hamroeva qator maqolalarida fikr bildirishgan.

Shuningdek, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad, xalq yozuvchisi X.To'xtaboyev, taniqli shoirlar T.Adashboyev, Miraziz A'zam, olimlar A.Rasulov, R.Qo'chqor kabilar ham shoir ijodi haqida o'z maqolalarida munosabat bildirishgan. Lekin biz ko'rgan asarlarda adib hajviyotida ijtimoiy masalalarning yoritilishi haqida kam fikr bildirilgan. Xususan, R.Barakayev o'zining 80- yillar bolalar she'riyatiga bag'ishlangan asarida T.Adashboyev, H.Imomberdiyevlar haqida yozadi va asarida Anvar Obidjon haqida ham fikr bildiradi: "80-yillar o'zbek bolalar she'riyatidagi hajviy-yumoristik va majoziy she'riyat taraqqiyotida bugungi bolalar adabiyotimizning tom ma'nodagi yetakchi namoyandasi Anvar Obidjon asarlari alohida o'rin tutadi. Shoirning "Bulbulning cho'pchaklari", "Kumush uy", "Gurungdagi gaplar", "G'alati maktublar", "Ajoyibxona", "Ignalarim chiroyli", "Mening kolleksiyam", "O'zimizning ansambl", "Shirin so'ylar jajjivoylar", "kalamushlar kemasi" kabi turkumlariga kirgan ko'plab she'rlarida hajv va majozning ajoyib namunalarini yaratdi"². Tadqiqotchilar orasida Z.Ibrohimova Anvar Obidjonning ijodiy portretiga ba'zi chizgilarni yaratgan. Olimaning e'tirof etishicha, "Shoir tabiatga oid ko'plab sha'elarida bolalarga, hatto sen uchun jirkanch tuyulgan narsaning ham o'z hayoti, o'z olami bor va shuning o'ziyoq e'tiborga loyiq, degan falsafiy aikrni yetkazishga intiladi"³.

Bizning fikrimizcha, Anvar Obidjonning hajviya she'r va hikoyalarida, ayniqsa bolalarga bag'ishlangan asarlarida ijtimoiy hayotning muhim jihatlari turli usul va vositalar yordamida, o'ziga xos tarzda ochib berilgan. Ularning mavzu ko'lami hamda jami, miqdori ham talaygina. Shuning uchun bizbitiruv-malakaviy ishimizda ushbu mavzuni o'rganish maqsadida, asosan, shoirning bolalarga bag'ishlangan she'rlariga asarlariga murojaat qilamiz.

² Баракаев Р. Жонажоним шеърият. (80-йиллар ўзбек болалар шеърияти ҳақида баъзи қайдлар). -Тошкент. "Чўлпон". 1997. – 88 б.

³ Иброҳимова З. Қувноқликка яширинган изтироблар. –Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2005. 12 –бет.

BIRINCHI BOB.

HAJVIYLIKNING IJTIMOIIYLIK MOHIYATI

Hozirgi zamon bolalar adabiyotining taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘shib kelayotgan Anvar Obidjon 1980-yilda „Bahromning hikoyalari“ nomli to‘plami chiqqanidan so‘ng adabiy jamoatshilikning e‘tiboriga tushdi, deb yoziladi manbaalarda. Shoir ijodi bo‘yicha yozilgan tadqiqotlarda qayd etilganidek, oradan ko‘p vaqt o‘tib ham, u o‘zining munosib o‘rnini mustahkam saqlab turibdi, uning ko‘p qirrali ijodiga bo‘lgan qiziqish tobora ortmoqda. Ibrohim G‘afurov, Xudoyberdi To‘xtaboev, Abdug‘afur Rasulov, Said Ahmad, Safo Matjon, Rahmon Qo‘shqor, Miraziz A‘zam, Mahmud Sattor, Kavsar Turdieva, Tursunboy Adashboev, Lola Sodiqova-Zvonaryova, Rahmatulla Barakaev, Hulkar Hamroeva kabi munaqqid va adiblarimiz bu ijodkorning asarlari to‘g‘risida bir-biridan ko‘tarinki maqolalar yozishdi. Izlanuvshi olim Zamira Ibrohimovanning „Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar“⁴ nomli kitobida adibning nazm va nasrdagi asarlarining nihoyatda o‘ziga xosligi, o‘quvshini o‘ziga mahliyo eta olish sirlari keng talqin qilib berilgan.

Anvar Obidjon ijodi yuzasidan fikr bildiruvshilarning barshasi doimo bir narsaga, ya‘ni uning bolalar adabiyotiga yangisha bir yo‘nalish olib kirganiga alohida urg‘u berib o‘tishadi. Kichkintoylar shoiri Tursunboy Adashboev bu holni soddagina ta‘riflab: „80-yillarga kelib Anvar Obidjon bolalar she‘riyatidagi obhavoni bir yo‘la yangiladi“, deb yozgan edi.

Haqiqatan ham, bolalar adabiyotida o‘tgan asrning 80-yillarigacha chop etilgan kitoblardagi she‘rlarga nazar tashlasak, ularning aksariyat qismi o‘sha mahaldagi tuzumni ulug‘lashga, turmushimizning o‘ta farovon, kelajagimizning behad yorqin ekanligiga o‘quvchini ishontirishga qaratilgan „yalang ‘och mafkura“li she‘rlar, bog‘cha, maktab, oromgohlardagi g‘amxo‘rliklarni, yosh avlodning dunyoda eng baxtiyorligini aks ettiruvchi quruq ma‘lumotlardan nariga o‘tolmaydigan asarlardan iborat edi. Ko‘r-ko‘rona pand-nasihatlar, xalq ertaklari va latifalari asosida

⁴ Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. –T. A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2005

engil-elpi hazillar to‘qish ham avj olgan edi. Bunday asarlarning vazifasi bir xil bo‘lib, ular bolalarning ongiga ta’sir o‘tkazishga xizmat qilar edi. Shunday sharoit mavjud bo‘lgan, bolalarni „imperiya mafkurasi“ chizib bergan chiziqdan chiqarmay tarbiyalash qonunga aylanib qolgan muhitda boshqasha yo‘lda ijod qilish mumkin emasdek tuyular edi. Anvar Obidjon shu chiziqdan yorib o‘tishni uddalashga urina boshladi. Uning bolalarga bag‘ishlangan she’rlarida kundalik ijtimoiy hayotdagi qator masalalar hajviy yo‘l bilan yoritila boshlandi.

“Badiiy adabiyot ijtimoiy borliqning in’ikosi, tarixiy taraqqiyotdagi muayyan bosqichning mahsuli sifatida maydonga keladi va ayni paytda, uning o‘zi ham mana shu taraqqiyotga muayyan ta’sir o‘tkazadi”⁵. Buning sababini anglash kishidan badiiy adabiyotning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligini bilishni talab etadi. Aslida ham badiiy adabiyotda hayotni, borliqni bilishning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Biz yetuk badiiy asarlar orqali hayotni, atrof borliqni o‘rganamiz. Ijodkor o‘z asarida voqelikni aks ettirar ekan uni albatta obrazlar yordamida ifoda qiladi.

Hayot turli turli-tuman, goh jiddiy, goh fojeaviy, goh hajviy voqeahodisalarga to‘la. Ijodkor o‘z asarida ana shu hayotni tasvirlar ekan inson borlig‘ini, dardu alamini, quvonch va tashvishlarini, orzu-umidini, intilishlarini, hayotga munosabatini turli obrazlar orqali tasvirlaydi. Tabiiyki, bu obrazlar ifodasi adibning mahorati, iste’dodi, dunyoqarashi kabi bir qancha omillarga bog‘liqdir. Chunki adib, umuman har qanday ijodkor voqelikni o‘z qalb prizmasi orqali qayta ishlaydi, badiiy idrok etadi. Chunki, “Jamiyatda yashayotgan shaxs (jumladan, ijodkor ham) ma’lum bir ijtimoiy guruh vakili, demak, o‘zining muayyan ijtimoiy muhitda shakllangan qarashlari, orzu-intilishlariga egaki, bular shu guruhning qarashlari, orzu-intilishlariga ko‘p jihatdan mos. Shunga qaramay, ijodkor birinchi galda shaxs, shu bois ham asar mazmunida shaxsiylangan ijtimoiylik aks etadi, shaxsiylik va ijtimoiylik uyg‘un mujassamlashadi”⁶. Demak, hayotdagi ijtimoiy-

⁵ Коллектив. Адабиёт назарияси. икки томлик.-Тошкент. “Фан”. 1978. 13-бет.

⁶ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent. Fan. 2007. 25 bet.

maishiy, kulgili voqealar ham adabiyotga kiradi. S hunday voqealar zamirada esa hajviy obrazlar yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Masalan, “Quduqdagi paqirga yozilgan she’r”ida shoir shunday yozadi:

Bir-bir kelar oldingga
Qishloqdagi paqirlar.
Senga boqib umidvor,
Salom berib shaqirlar.
Sho‘ng‘iyotib quduqqa,
Asta alik olasan.
Bariga suv ulashib,
O‘zing quruq qolasan.⁷

Bu she’riy parchda maiyshiy hayotda uchraydigan oddiy viqelik mavjud. Ammo shoir paqir detalini obraz darajasiga olib chiqib, uning zimmasiga juda katta ijtimoiy masala adolatparvarlik g‘oyasini singdirgan. Chunki paqir ham o‘zbek xalqi singari mehnat qilveradi, biroq uning mehnatidan orttirilgan moddiy boylik, farovon hayot unga nasib qilmaydi.

“Darvozaga yozilgan she’r” nomli she’rida shoir vatanparvarlik, erk g‘oyalarini oddiy darvoza obrazi orqali juda chiroyli ifodalaydi:

Hushyorroq bo‘l,
Gohida –
Ishlatib tur tambani.
Pokiza bu hovliga
Qo‘yaverma hammani.⁸

O‘t,ishdan ma’lumki, yurtimiz o‘zining dilbar tabiati, saxovatili zamni bilan necha asrlardan beri jahonni lol qoldirib kelmoqda. Bu yurti bosib olish, uning behisob boyliklariga egalik qilish istagi ne-ne hukmdorlarni, bosqinchilarni o‘ziga rom qilmadi, deysiz? Ayniqsa, qizillar imperiyasining mustabidligi hammadan

⁷ Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon: She’rlar, doston va ertaklar. – T.: Cho‘lpon. 2006. 43 bet.

⁸ O‘sha manbaa. 44-bet.

oshih tushdi. “Savodsiz o‘zbek xalqiga ma’rifat olib kelish” niqobi ostida yurtimiz qadriyati oyoq osti qilindi, tariximiz soxtalashtirildi, tilimiz, yozuvimiz, asriy an’alarimiz, madaniy hayotimiz, ta’lim-tarbiya tizimimizni yo‘qotishga urinishdi. Faqatgina bu holga, shoir orzu qilgan Mustaqillik, Ozodlik va Erk bu ho‘rliklarga chek qo‘ydi.

Yuqoridagi she’rlarda shoir kutilmagan hayotiy detalar orqali ijtimoiy masalalarni yoritadi. Paqir, Darvoza obrazlaridan o‘tkir ko‘z, nozik idrok va mahorat bilan foydalangan. Yurtimizning yaqin o‘tmishdagi ayachli taqdiri, yarim dunyoga gaz berib, o‘zi g‘o‘zapoyaga yolchimagan xalq kechinmalari shoirning buyuk armonidir. Mehmon bo‘lib kelib, xalq xizmatidan foydalanib, oxir oqibat uni suvsiz qoldirgan g‘animlarga nafrati bor. Shunig uchun ham u kuyunib, “Pokiza bu hovliga” – muqaddas Vatanga hammani ham kiritish shart emasligini uqdiryapti.

Ma’lumki, jahonga mashhur yozuvchilar o‘z asarlarini hamisha ikki-uch mazmuniy qatlamda, ya’ni bolalar uchun ham, kattalar uchun ham badiiy-estetik ozuqa beradigan tarzda yaratdilar. Bunda ijodkorning birinchi vazifasi turli sarguzasht, hangoma, g‘aroyib hodisalar yordamida asarning qiziqarligini ta’minlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan kattalar uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy masalalarni o‘rta qo‘yadi va ushbu masalalarning yechimini ko‘rsatishdan iboratdir. Uchinchidan, mazkur vositasida bolalarni insonparvar, vatanparvar, fidoiy kishilar qilib tarbiyalarni ham nazarda tutadi. Bu borada ayniqsa, hajviyaning ijtimoiy mohiyati aniqroq ko‘rinadi.

“Hajviya(arabcha -ustidan kulmoq) - biror shaxsni tanqid qilish, ayovsiz qoralash, kamchiliklarini sanab ko‘rsatish maqsadida yaratilgan asar, adabiy janr. Avval arab she’riyatida keng tarqalgan hajvlarda raqibni qoralash, sharmanda qilish uchun yolg‘on uydirmalar to‘qish, jismoniy nuqsonlarni yuzga solish, hatto uyatsiz so‘zlar ishlatish ham odatiy bo‘lib, ba’zan javlarning haqorat va tuhmatga aylanib hollari ham uchragan. Mutaxassislar hajviyning satiradan farqi sifatida konkret shaxs qaratilganilikni ko‘rsatadilar, ya’ni hajvchining maqsadi ijtimoiy

hayotdagi muayyan holatni badiiy umumlashtirib, g'oyaviy inkor qilish emas"⁹. Biroq bu tamoyil hajvning mutloq asosi emas, chunki hajv taraqqiyotining keyingi yillarida hajvning ijtimoiy muammo va masalalarga bag'ishlangan ko'rinishlari ko'zga tashlandi va unda satiraga xos xususiyatlar, xususan g'oyaning konkret shaxsga emas, balki umum ijtimoiy manfaatga xizmat qilish kuchaydi. Masalan, XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashgan shoir Mujrim Obid ijodida "og'ziga har na kelsa gapirib, oldiga har na kelsa yeb" yuradigan, kambag'al bechoralarga zulm qiladigan, boylarga laganbardorlik qiladigan shaxslarni tanqid qiladi. Lekin konkerte shaxslarni tanqid ostiga olgan qator hajviyalar ham borki, ularda satiraga xos umumlashmalarni ko'rish mumkin. Masalan, Muqimiyning "Saylov", "Moskovchi boy ta'rifida", "To'yi iqonbachcha"; Zavqiyning "Ahli rasta hajvi" asarlarida garchi konkret shaxslar tilga olingan bo'lsada, ularda ijtimoiy hayotdagi holatlarni umumlashtirib tanqid qilish kuchliroqdir. Huddi shunday xususiyat Anvar Obidning bolalarga bag'ishlangan she'rlarida ko'rish mumkin.

Anvar Obidjon bolalarninh sodda, beg'ubor shunig bilan birga murakkabliklarga to'la ijtimoiy hayotini tasvirlar ekan, ularda aqlli, jasur, mard, adolatparvar, vijdonli bolalar bolalar obrazlari bilan birga sho'x, o'inqaroq, to'loonchi, dangasa, shirinlikka o'ch, nafsini tiyolmaydigan obrazlarni ham yaratadi. Bu bilan dangasa, qo'rqqoq, ochofat, yolg'onchi bolalarning salbiy jihatlari ustidan kulsa, ikkinchi tomondan, boshqa bolalarni yalqov, yolg'onchi, ochofat bo'lmaslikka chaqiradi. Masalan,

Kalamushvoy,
Kalamush,
savoding sal chalamush.
Yoz desalar
"Temir" deb,
Sen yozibsan

⁹ Qur'onov D. Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -Toshkent. 2010. Akademnashr. 388-389 betlar.

“Kemir” deb.¹⁰

“Obbo, Kalamushvoy” deb nomlangan ushbu qisqa, ammo mazmundor she’rdan bolalar ham, kattalar ham tegishli ma’no chiqarib oladilar. Shoir kalamush ustidan (aniqrog‘i, kalamush sifat kishilar ustidan) samimiy kuladi. Birinchi qaraganda, unda chalasavob o‘quvchilar qoralanyapti. Ular to‘g‘ri yozolmay kalamushdek, odamlardan, aslida ilmi o‘quvchilardan, qochib yurishga majbur bo‘ladilar. Ikkinchi tomondan olsak, kalamush timsolida umumlashma obtazni ko‘rish mumkin. Bilamizki, kalamushning asosiy ishi kemirish, u busiz yashay olmaydi. Endi she’rga jiddiyroq yondoshsak, muallif kalamushday o‘jar, har narsani o‘z foydasiga burib yuboradigan, boshqalrning ortidan ish bitiruvchi kishilarning obrazini ko‘rish mumkin. Anvar Obidjon oddiy bir jonivor yordamida jamiyatda uchraydigan ijtimoiy illatni ochib tashlaydi. Bu bilan hajviy she’rning ijtimoiy mohiyati aniq ochib berilgan. Demak, hayotni badiiy aks ettirishda hajvning shakllantirgan ijtimoiy masalga, ko‘proq shu masala bilan belgilanuvchi xarakter mantiqiga muvofiq harakat qilishlarini taqozo qiladi. Bu esa badiiy ijod jarayonida, ayniqsa, bolalar ijodida katta o‘rin tutadi. Chunki bolalar olami aynan bilan kattalar olamidan farqlanadi. Ma’limki psixologik nuqtai nazardan kattalarda xarakter xususiyatlari to‘liq shakllangan bo‘lib, ular hayotdagi har bir voqea-hodisaga aql-mushohada bilan yondoshadi. Bolalarda esa bu xususiyat o‘zgaruvchan ba’zan, voqelikka mantiqiy yondoshilsa, ba’za g‘ayrushuriy, o‘ylamay ish qilishadi. Bulardan tashqari, badiiy asarni, aniqrog‘i, uning ijtimoiy mavjudligini, shuningdek, ijtimoiy hayotning muayyan muammolari yoritishda aniq shaxs, bola timsolida boshqa bir maqsadni ko‘zda tutgan bo‘lishi mumkin.

Masalan, Anvar Obidjonning “Uch yoshlilar” she’rida uch yosh bola o‘ylamay javob qaytarish orqali o‘ziga xos kulgi holatni paydo qilgan.

- Olmaniyam

G‘ajiyman,

¹⁰ Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. she’r va ertaklar to‘plami. -Toshkent. “Yosh gvardiya”. nashriyoti. 1980. 21-bet.

Holvaniyam
 G'ajiyman...
 -O'zi nechta
 tishiyng bor?
 -Seni nima
 ishing bor?¹¹

Bu yerdagi asosiy maqsad uch yoshli bolaning dunyoqarashi orqali, kata bo'lsa ham bollarga klata o'yligi qo'ymaydigan, turli illatlari bilan odamlar orasida istehzo uyg'tadigan kishilar haqida so'z yuritilgan. Chunki, she'rdagi bolaning savoli kishini o'ylantiradi. Axir, tish sanog'i kishining yoshini ham belgilaydi. Bu esa she'rdagi ijtimoiy masalaning tasviriga turtki beradi. Bola ochofat, qizg'anchiq jihati bor kattalarning ustidan kulayotgandek taassurot qoldiradi.

Shoirning "Tillaqo'ng'izning javobi" degan ajoyib she'ri bor¹². "Sen nega gapirmaysan, faqat g'o'ng'illaysan?" – degan savoldan so'ng Tillaqo'ng'iz birdan tilga kiradi. Uning so'ylashicha, bir zamonlar nihoyatda xushovoz bo'lgan Tillaqo'ng'iz o'z yurtida tinchgina qo'shiq aytib yurganida, mudhish hodisa ro'y beradi. Dushman Chigirtkalar to'p-to'p bo'lib kelib, uning ona maskanini bosib olishadi:

Bor narsani yamlashib,
 Ular rosa yayrashdi.
 Do'q urishdi o'rgan deb
 Chigirtkadek sayrashni.
 Yolg'iz, nochor bo'lsam ham,
 Qo'shilmadim men yovga.
 Sekingina o'zimni
 Solib oldim soqovga.

¹¹ O'sha kitob. 33-bet.

¹² Anvar Obidjon. Juda qiziq voqea. –Toshkent. "Yulduzcha" nashriyoti. 1987. 41-bet.

Bu she'r hali o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi mumkinligi tushimizga ham kirmagan 1980 yili yozilgan. Sho'ro tuzumi umuminsoniy qonun-qoidalarni mensimay qo'ygan, ruslashtirish siyosati ochiq tus olgan o'sha yillarda bunday she'r yozish haqiqiy jasorat edi. Shoir o'z tuyg'ulari, qalbiga tinimsiz og'riq berayotgan armon va dardlarini Tillaqo'ng'izning iztiroblari orqali ifodalaydi.

Aslida Tillaqo'ng'izning iztiroblari yaqin o'tmishdagi ulug'vor bir xalqning fojiasidir. Shoir Tillaqo'ng'iz timsoli orqali eng nodir milliy boyligimiz – tili toptalgan xalqini ko'radi, faryod chekadi. O'z tilini qo'yib, o'zga tilda so'ylayotgan, shafqatsiz chigirtkalarga jo'rovoz bo'lib sayrayotgan, o'zligini xo'rlayotgan ko'rnamaklardan nafratlanadi... hamda ularga rahmi keladi.

Sir emaski, hozirgi bolalarning shakllanishi nihoyatda murakkab tarixiy jarayonlar davriga to'g'ri keldi. Kelajakning qanday bo'lishini kutish ham, uni yaratish uchun kurashish ham mumkin. Anvar Obidjon ikkinchi yo'lni tanlaydi. Yetmish yillik zo'ravonlik ta'sirida ulg'aygan, jamiyatimizdan qalbaki va'dalaru arzonroq nondan boshqa hech qanday muruvvat ko'rmagan farzandlarimizni aslida yo'q "baxtli bolalik uchun" tinimsiz tashakkur bildirishlarga undash, adolatni amalda yaqqol his etmaslik befarq qilib qo'ydi. Shuning uchun ham shoir o'z qahramoni bilan yelkama-yelka yurishi zarur. She'riyat o'z vazifasini to'liq uddalashi uchun faqat shoirning iste'dodi kifoya qilmaydi. Bu yerda kitobxonning ruhiy dunyosini anglash va tushunish qobiliyati ham zarur. Anvar Obidjon o'zining qudratli va jozibali she'rlari bilan bolalarga qalb ozodligi – Vatanni sevish tuyg'usini singdirishga erishadi.

"Botirvoyning kundaligi"¹³ turkumini o'qir ekanmiz, bolakayning topqirligi, hozirjavobligi, dilkash va dovyurakligi beixtiyor havasimizni keltiradi. Botirvoy tengdoshlariga nisbatan ancha ziyrak, biroz qitmir, xayolparast bola. Atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarni qiziqib kuzatadi, erinmasdan kundaligiga qayd etib boradi. 20 iyun kuni cho'milishga borib, daftariga quyidagilarni yozib qo'yadi:

¹³ Anvar Obidjon. Juda qiziq voqea. –Toshkent. "Yulduzcha" nashriyoti. 1987. 121-156-betlar.

Chomilsin deb nabiram,
 O'rgansin deb suzishni,
 Eplasin deb menimcha
 Boshqalardan o'zishni,
 Sher bilakli bobolar
 Zo'r ishga bel bog'lashgan,
 Shu Farg'ona kanalin
 Qirq besh kunda kovlashgan.¹⁴

Hajmi kattami, kichikmi, haqiqiy she'rning asosida hayotiylik, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikr yashiringan bo'ladi. Katta Farg'ona kanali o'zbek xalqi vatanparvarligining og'ir urush yillaridagi yuksak namunasi. Botirvoyning ham sherbilak bobolar mehnatidan faxrlanishi, ham bu mehnatning asl mohiyatini bolaga xos idrok bilan anglashining, his qilishining o'zi nihoyatda muhim. She'rdagi "boshqalardan o'zish" faqat kanalda cho'milish ma'nosidagina ishlatilmay, bu ibora zimmasiga ulkan ijtimoiy ma'no yuklatilgan. Farg'onaning chekka qishloqlaridan birida o'sib-ulg'aygan muallif – "sher bilakli bobolar" avlodi o'zbek xalqining oqimga qarshi suzishdan cho'chimaydigan mard o'g'lonlari ko'payishini, qadimiy shon-shuhrat tiklanishini, Botirvoylar uning qadriga etishini istaydi.

7 iyul kuni Botirvoyning kundaligida shunday yozuv paydo bo'ladi:

Tog'dan olib kelgan gulim
 Bugun birdan so'lib qoldi.
 Dadam dedi: "O'z eridan –
 Ayrildi-yu,
 O'lib qoldi..."¹⁵

Balki Botirvoy "Daraxt bir erda ko'karadi" degan xalq maqolining asl mohiyatini, inson o'z tug'ilgan yurti, kindik qoni to'kilgan tuprog'idan ajralsa

¹⁴ O'sha kitob. 140-bet.

¹⁵ O'sha kitob. 142-bet

hatto nobud bo'lishi mumkinligini, tirik qolganda ham butun umri g'am-g'ussa bilan o'tishini shu kuni ilk bor tushunib etgandir. O'zi tug'ilib o'sgan tuproqni yanada qadrlashni diliga mahkam tugib qo'ygandir.

Shoir, avvalo, bolalarning kelajagi uchun javobgar, aytayotgan so'zi uchun mas'ul. Uning hayotiy zaminga qurilgan har bir she'ri bola ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi zarur. Bolalarga bag'ishlangan she'rlar o'z mohiyati bilan ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Shunday ajoyib asarlar borki, ular eng yaqin sirdosh, do'st o'rnini bosadi, dunyoni endigina taniyotgan kichkintoylar ko'z o'ngida hamma narsaga qodir ulug' sehgarga, eng ishonchli maslahatchiga aylanadi.

Ota-onalarning orzuyi shuki, kitoblar farzandlarini tabiatdan zavqlanishga, borliqni tezroq tanishga, tilimizdagi go'zalliklarni sevishga, ko'hna an'analimizni qadrlashga, biyron so'zlay olishga o'rgantsin va ayni paytda ularda muqaddas Vatanga muhabbat, zahmatkash xalqqa mehru shafqat hissini tarbiyalay olsin. Nazarimizda, Anvar Obidjonning zavq, ilhom va muhabbat bilan yozilgan asarlari bir yo'la hamma vazifani vijdonan ado etadi: bu she'rlar ham quvnoq do'st, ham jiddiy tarbiyachi. Uning she'rlarida g'alati, yoqimli hazil-mutoyiba, yashirin achinish, kulib yig'lash, muntazam qat'iyatlilik, sirli iboralar, kutilmagan tashbehtar orqali har qanday kitobxonni o'ziga rom qiladigan qudrat bor.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hajviy asarlarda real hayotda uchraydigan voqealarga ijtimoiy masalar yuklanadi. Yaratilgan hajviylik asosida kishilar munosabatida uchraydigan turli illatlar bilan birga umumxalqqa tegishli bo'lgan katta ijtimoiy masalalar kutuilmagan detallar, holatlar orqali ochib berilgan. Yaratilgan ijtimoiy obrazlar, ilgari surilgan g'oyalar ijtimoiy hayotning asosi sifatida etirofqa loyiq. Bu esa Anvar Obidjon hajviyalarining ijtimoiy mohiyatini bildiradi.

1.2. HAJVIY OBRAZ YARATISH USULLAR

O'zbek bolalar adabiyotida bevosita bolalar hayotidan olib yozilgan hajviy she'rlarni kuzatadigan bo'lsak, ijodkorlar hajviy obraz yaratishning asosan ikki usulini qo'llaganini ko'rish mumkin. Birinchisi yumoristik obraz, ikinchisi majoziy

obrazlardir. Anvar Obidjon ham ana shu yo‘ldan borib yumoristik va majoziy usullar bilan obrazlar yaratgan. Uning o‘ziga xos kashfiyotning siri shundaki, shoir bolalarning ongidan ko‘ra ko‘proq ko‘ngliga ta’sir o‘tkazish yo‘lidan bordi. Binobarin, ko‘ngilga qattiq o‘rnashmagan narsa ongda uzoq vaqt saqlanishi, saqlanganda ham faol harakatga sabab bo‘lishi qiyin. Bunda majoziy obrazlarning badiiy asardagi o‘rnidan unumli foydalangan. Tahlil qilib ko‘rish ushun „Bahromning hikoyalari“ kitobidagi „Bezori“ degan she’rni olaylik:

Qarg‘a kirdi
 Kinoga,
 O‘xshab
 Buratinoga.
 Hamma joylar
 Edi band,
 Borib dedi
 Nopisand:
 — Menga qara,
 Vey, Laylak,
 Eganmisan
 Hech kaltak?
 Qani,
 Tur-chi o‘rningdan.
 He, o‘rgildim
 Burningdan!¹⁶

Qarg‘a majoziy obraz sanalib, u hayotdagi bezori, boshqalardan o‘zini ustun qo‘yuvchi, tarbiyasiz bolalarni ifodalaydi. Uning qiliqlari orqali ana shunday bolalar qattiq hajv qilinadi.

„Eski maktab“da suyagi qotgan shoir bezorilikni qoralamoqshi bo‘lsa, kuchim ko‘p deb boshqalarga ozor yetkazaverma, hammaga xunuk ko‘rinib, oxiri nazardan

¹⁶Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. she’r va ertaklar to‘plami. -Toshkent. “Yosh gvardiya”. nashriyoti. 1980. 15- bet.

qolasan, sen bilan hesh kim o‘rtoq bo‘lmay qo‘yadi, deganga o‘xshash mazmunda she‘r bitishi tabiiy hol edi. Bu bilan u o‘quvchining ongiga ta‘sir qilmoqchi bo‘ladi. „Bezori“da esa, Anvar Obidjon she‘rxonning ko‘ngliga yo‘l izladi va o‘quvchiga quvnoq kayfiyat bag‘ishlovchi qiziq holat, kulgili obraz yaratish orqali bunga muvaffaq bo‘la oldi. Dilozor bezorining ko‘pchilik unsha xushlamaydigan, isqirt joylarda ivirsib yuruvshi qarg‘a qiyofasida berilganining o‘zi jajji kitobxonning ko‘nglida unga nisbatan ijirg‘anish hissini uyg‘otadi va bolaning g‘ashiga tegishi mumkin bo‘lgan quruq nasihatlarini aytishga hojat qolmaydi.

„Bahromning hikoyalari“dagi „Parvarda“¹⁷ degan boshqa bir she‘rda esa yosh Bo‘richa onasi quyon go‘shtini, otasi kiyik go‘shtini uning tug‘ilgan kuniga sovg‘a qilishmoqchi bo‘lsa-da, bunga ko‘nmay, hali o‘zi totib ko‘rmagan, juda shirinligini birovlardan eshitib bilgan parvarda olib berishlarini talab qilishga tushadi. Ota-onasi kuyunib, parvarda faqat shaharda sotilishini, u yoqqa borish xatarli ekanini tushuntirishga urinishadi. Ammo, Bo‘richa bu gaplarga quloq solmay, jonini xatarga qo‘yib bo‘lsa ham, parvardani eb ko‘rish ishtiyoqida yonganicha shaharga qochib ketadi. Shaharga borganidayoq uni tutib olishib, ajoyibxonadagi qafasga tiqib qo‘yishadi, hammaga tomosha bo‘lib, endi parvardani o‘ylamay, o‘zi tug‘ilgan adirni sog‘ina-sog‘ina kun ko‘ra boshlaydi. Oradan bir nesha yil o‘tgach, taqdirga ko‘nikib, yuvoshgina bo‘lib qolgan Bo‘richaga aynan u tug‘ilgan kunda bir qizcha parvarda tashlab o‘tadi. Endi unga parvarda kerakmikan, degan savol tug‘iladi o‘quvshida. Bu she‘rning ijtimoiy mohiyati bo‘ri majoziy obrazi orqali juda ta‘sirli va ishonchli ochib berilgan. Chunki o‘sha davrda bolalar adabiyotida hukm surib turgan muhitni hisobga olganda, bu singari she‘rlarni yozish o‘ziga xos bir o‘jarlik, hatto shakkoklik sanalardi. Chunki u davrlarda qishloqlardagiga qaraganda shaharlardagi hayot darajasi bir nesha o‘n baravar yuqori bo‘lib, u erdagi maoshi ko‘p zavod-fabrikalarga boshqa respublikalardan kelgan ishchilarni joylashtirishar, mahalliy aholini qishloqda ushlab turish uchun ko‘pchiligiga hatto pasport ham berilmas, ulardan birovi shaharga borib kelsa, falon g‘aroyibotlarni

¹⁷ O‘sha kitob.16 –bet.

ko‘rdim, deb u yoqdagi turmushning shirinligini maqtashga tushar, barchaning havasi kelar edi. Shoir „Parvarda“ she‘rida, bir tomondan, qishloqdan narini bilmay kun kechirayotganlarga achinsa, ikkinchi tomondan, shaharning o‘ziga xos hayot tarzini yaxshi bilmay turib borganlarning hammasiga ham „shirin“ luqma nasib etavermasligini sha‘ma qiladi. Bu she‘r real hayot haqida edi, faqat bolalarni emas, katta yoshdagilarni ham o‘ylantirib qo‘yadigan kuchga ega edi. Zamonaga esa, saviyasi qay darajada yuqori bo‘lmasin, bunga o‘xshagan she‘rlar kerak emasdi, bolalarimizning ko‘nglini cho‘ktiradigan, pessimistik (tushkunlik) ruhdagi narsalar bizga yot, biz turmushimizdagi qahramonliklarni, kishilarimizdagi yaxshi xislatlarni targ‘ib etishimiz zarur, degan g‘oya hukmron edi.

Uning „Siz eshitmagan qo‘shiqlar“¹⁸, „Dalalardan bolalarga“, „Ajoyibxona“¹⁹, kabi turkumlarga jamlangan hamda buyumlar, jonzotlar, o‘simliklarning turli yumoristik va majoziy obrazlari yordamida real hayotdagi ijtimoiy masallar yengil kulgi va majoz ifodalanadi:

To‘tiqushga yalinishdi
 Qarg‘a, Cho‘chqa, It,
 Mayna:– Odamlardek gapirishni
 Bizga ham o‘rgat, oshna.
 To‘ti dedi: –Men roziman,
 Mushkul ishdir bu garchi.
 Qani, aziz talabalar,
 «Ar-r-rabaliq» denglar-chi.
 Qarg‘a dedi:
 – Qar-r -rabaliq!
 «Ir-r-rabaliq» dedi It.
 «Xur-r-rabaliq» dedi Cho‘chqa,

¹⁸ O‘sha kitob. 17-21 –betlar.

¹⁹ Анвар Обиджон. Жуда қизиқ воқеа. –Тошкент. 1987. 6-26 бетлар.

Mayna dedi:

–Vit-vit-vit...²⁰

Mazkur she'rda odamlar orasida uchraydigan ijtimoiy hodisa – o'zgarlar ishiga tumshuq suqish illati yumoristik kulgi ostiga olingan. Undagi qarg'a, cho'chqa, it obrazlari majoziy bo'lib, ular orqali o'zlari tushunmagan narsa haqida safsata sotadigan odamlarning tuzatsa bo'ladigan kamchiligi ochib tashlangan.

Ma'lumki yumor va satira hajviyaning muayyan qismlari bo'lsa-da, ular orasida mushtaraklikdan tashqari, farqlar ham bor. Bu eng avvalo badiiy asarlardagi kulgilik darajasi, kulguning ifoda o'рни va shaklida ko'rinadi. Kulguning qanday kulgi ekanligi – zaharhanda yoki nafratli, beg'araz yoki do'stona, hazilomuz ko'rinishlari satira va yumorning farqini ko'rsatuvchi mezondir. Chunki kulguning mazmun-mohiyati uning yaratish usul va uslubiya o'ziga xoslik bag'ishlaydi.

„Bulbulning cho'pchaklari“ turkumida, garchi muallif ularni shaklan g'azal holati deb baholagan bo'lsa-da, bolalar adabiyotiga g'azal janrini olib kirdi.

Professor Abdug'afur Rasulov „Ijodiy o'zlik sari yo 'l“ maqolasida²¹ shunday deydi: „Anvar Obidjon bolalar ushun nimaiki yozmasin, go'zallikni, kuyni, shakl va mundarija mutanosibligini nazarda tutadi. Bulbul qo'shiqlari turkumida hamma narsa go'zal, mukammal. Ohangga mos so'zlarni tanlaydi, qahramonlarning fazilatlarini topib-topib, o'rniga qo'yib-qo'yib tasvirlaydi:

Musichalar yuvosh-u Chumolilar tirishqoq,
Suvaraklar bebosh-u Kuchukchalar urishqoq.

Xo'tiklar zo'r yallachi, Qo'y, Sigirlar dalachi,
Sho'x Qo'chqorlar kallachi, Takalar ham suzishqoq“.

Shoir „Juda qiziq voqea“ kitobidagi izohda, qat'iy bir ohangga rioya qilaman deb, so'zlarning bolalar ushun oson tushuniladigan tizimda ravon bo'lishiga putur

²⁰ Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. she'r va ertaklar to'plami. -Toshkent. "Yosh gvardiya". nashriyoti. 1980. 22-bet.

²¹ "SHarq yulduzi" jurnali, 2008. 2-son

yetkazmaslik maqsadida aruz qoidalariga ataylab to'liq rioya qilmaganini ta'kidlasa-da, „g'azal shaklidagi“ she'rlar baribir tekis va jarangdor chiqqan. Shoir bu bilan o'z zamonasi bolalarining aruzdan butunlay begonalashib ketmasligini ta'minlashdagi oliyjanob istagiga erishgan.

Anvar Obidjon she'riyatining yana bir muhim xarakterli jihati – bu she'rlar garchi asosan kichik yoshdagi bolalarga bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, hayvon va jonivorlar misolida hayotning faqat yorug' tomonlarinigina emas, balki uning qorong'i lahzalarini ham haqqoniy ifodalash bilan (bolaning aqli va shuuriga singadigan darajada) kichkintoy o'quvchi qalbida hayotning negativ kartinasini ko'rish vositasida mehr-shafqat, nafrat, gumanizm, vatanparvarlik tuyg'ularini ilk bor tarkib toptirib beradi. Yaxshi she'rlar orasida ham yaxshisi hisoblangan “Onaning jasorati” she'rida shoir ona Sichqonning olti bolasi bilan shod va baxtiyor umr kechirishi, uning shirin orzu-xayollarini tasvirlaydi. Ammo bu baxtiyor turmush uzoqqa cho'zilmaydi. Omborda shum Mushuk paydo bo'ladi. Olti bola endi och-nahor. Ona nima qilishi kerak? Chiqsa – Mushukning yemi bo'ladi. Chiqmasa – olti bola ochdan o'ladi. Buyog'iga she'rning o'zini tinglang:

...Ona nochor qo'zg'aldi
 Oziq topmoq ko'yida.
 Umidvor boqib qoldi.
 Huvillagan uyida
 Uning olti bolasi.
 ...O 'lja bo 'lib Mushukka,
 Ona ingrar, qaltirar.
 Asta boqar teshikka,
 Olti juft ko'z mo'ltirar –
 Uning olti bolasi.²²

²² Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. she'r va ertaklar to'plami. -Toshkent. “Yosh gvardiya”. nashriyoti. 1980. 23-bet.

Bu she'rda shoir ijtimoiy hayotning eng global muammolaridan biri – ochlik haqida so'z yuritadi. Kishilik jamiyatining yarmidan ko'pi och-nahor yashayotgan bugungi kunda, 10-15 foiz kishilar qo'lida dunyoning salkam sakson foiz oziq-ovqati jamlangani fikrimiz isboti. Bu she'rning mazmuning bir tomoni bo'lsa, uning ikkinchi tomoni mushuk va sichqon majoziy obrazlari orqali shoir hayotda uchraydigan qaramlik haqida ham so'z yuritgan.

Shoir she'rlarining yana bir asosiy xususiyati – uning she'rlarida nafaqat mazmunda, balki shaklda ham originallik mavjudligidadir. Uning har bir she'ri, turkum she'rlari o'ziga xos shaklda bo'lib, ularda ohang va vazn tovlanishlari, mazmun qat'iy talab qilgan naqorat, takroriy misra yoki qofiya-radiflar, lozim topilgan takror so'zlar beriladiki, bu hol bolaning she'rni oson anglashi, hatto uni yodlab olishini ta'minlaydi.

“Bolalar uchun yozilgan asarlar tarbiyaviy maqsadga bo'ysundirilishi kerak”, degan edi V. G. Belinskiy o'z davrida. A. Obidjon she'rlarining muhim ijtimoiy ahamiyati uning chuqur tarbiyaviyligida hamdir. To'plamdagi har bir she'rda biror hayvon yoki parrandaning, yo bo'lmasa, ularning eng yaqin, jonkuyar do'sti – Bolaning yaxshi yoki yomon fe'l-atvori, odati, xatti-harakati ko'rsatiladi. Tasvir qahramon faoliyatining xoh ijobiy, xoh salbiy shaklida bo'lsin, bola bu xatti-harakatni yo tasdiqlaydi, yo inkor qiladi. Demak, she'r mazmuni bola xarakterining ilk shakllanish jarayonida muhim tarbiyaviy omil sifatida xizmat qiladi.

Masalan, shoirning “Bahromning hikoyalari” to'plamiga kirgan eng yaxshi she'rlardan biri “O'rmonda ziyofat”ida²³ Sherning o'rmonda oshxona ochgani-yu, unda hayvonlarning xizmat qilishi hamda o'ziga yoqqan taomlarni yayrab eb, hordiq chiqarishining tasviri keltiriladi. Bu erda birinchi navbatda bolalar tarbiyasi uchun muhim bo'lgan jamoaviy tuyg'usini shakllantirish va o'zaro do'stona hamkorlik, tartib-intizom (“Eshikka xat yozilgan: “Tuyog'ingni art!”) haqida gap

²³ O'sha kitob. 24 –bet

boradi, ayni paytda, bolalar turli hayvonlar hayoti, ularning xarakterli xislatlari bilan tanishtiriladi:

...Mushuk dedi: “Keltiring –
Sutga to‘g‘rab non.
Yo‘qmi sizda mabodo,
Yangiroq sichqon?”
Tulkivoy der: “Bugun sal
Tashqari sovuq.
Menga – qaynoq kakao
Va tirik tovuq!”
...Menga hang... ham qarang”, deb
Baqirdi Eshak.
Sekingina dedi Fil:
“Bir tonna xashak!”

Shoirning to‘plamdagi yagona ertagi – “Bo‘rining doktor bo‘lgani haqidagi ertak”²⁴ o‘tkir hajvi bilan ajralib turadi. O‘rmonda hayvonlar doktori bo‘lib qolgan shum shifokor – Bo‘rining o‘z kasbini “suvdek bilishi”, hayvonlarni davolash o‘rniga, yo‘lini qilib, ularni yeyish payidan bo‘lishi qattiq satira ostiga olinadi. Bemor Tulki bilan shifokor Bo‘ri orasida shunday voqea bo‘lib o‘tadi:

...Mana senga tabletka,
Beri kel-chi, jon ini...
SHunday qilib
Bir chetda
Bo‘ri edi Tulkini.
So‘ngra ochib “Bemorni –
Qabul qilish daftari”n,
Silab-siypab qornini,

²⁴ O'sha kitob. 26 –bet

Yozdi ushbu gaplarni:

“Qo‘lin tirnab bo‘ztikan,

Tulki keldi notetik.

Ahvoli og‘ir ekan,

Chora topmadik...

Edik!”

Shifoxonaga o‘rmon shohi – Sher kirib keladi. Uning shikoyaticha, keyingi paytlarda ishtahasining mazasi yo‘q. Bo‘ri darrov xushomadgo‘ylik bilan shoh atrofida parvona bo‘ladi. Unga vitamin iste‘mol qilish zarurligini uqtirib:

“Tabibdir etti pushtim,

Shunday uqtirar ular:

Semiz hayvonning go‘shiti

Vitaminga boy bo‘lar”. –

deya maslahat beradi va shu bilan firibgar, shum shifokor o‘z tumshug‘idan ilinadi. Sher semizlikda hech qanday hayvondan qolishmaydigan tayyorxo‘r Bo‘rining o‘zini vitamin o‘rnida eydi.

Ma‘lumki, bolalar, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar adolatsizlikka chidashmaydi. Ular xoh multfilm ko‘rishsin, xoh qo‘g‘irchoq teatri spektaklini ko‘rishsin, xoh ertak tinglashsin, sevimli qahramonlariga jabr-zulm qilganlarning o‘zi ham pirovard natijada jabr tortishini juda istaydilar. Voqealar zanjirini sinchkovlik bilan kuzata borib, yomonning jazolanishini orziqib kutadilar. Bu niyatlari amalga oshgandan keyin esa terilariga sig‘may, chapak chalib, qichqirib xursand bo‘ladilar. Anvar Obidjon o‘z muxlislarining xarakterini, ularning ma‘naviy ehtiyoj va talablarini yaxshi biladi hamda o‘z ertagini xuddi bolalar istaganiday adolat tantanasi bilan yakunlaydi. Hammaga yoqqan, epchil, chaqqon Quyondoklikka o‘qishga yuboriladi.

Umuman olganda, shoir o‘zbek bolalar she‘riyatini pand-nasihat, didaktik ruhi o‘rniga hajviylik bag‘ishladi, yumoristik kulgi va majoriy obrazlarning o‘ziga

xos ifodasini olib kirdi. Biz bitiruv malakaviy ish yozish vaqtida bob bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik.

1. Shoir eng avvalo kundalik turmushda mavjud bo'lgan ba'zi illatlarni kulgi vositasida fosh qiladi va bu bilan ularning hajviy qiyofasini yaratadi. Bunda bolalarga xos mish-mish, g'iybat, chaqimchilik, dangasalik, ochofotlik kabi salbiy odatlar asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa haviylikning ijtimoiy mohiyatin I belgilaydi.
2. Shoir illatlarni fosh etishda realistic tasvir bilan birga majoziy obrazlarga ham murojaat qiladi va bolalar tilida hayotning tub ijtimoiy mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Bu esa uning she'rlarini ta'sirchanligini oshirgan.
3. Bolalar she'riyatida qo'llangan ixcham dialogik nutqlar, puxta kompozitsiya, xalqona qofiya hajviy obrazlar yaratishda samarali natija bergan.

IKKINCHI BOB. ADIB NASRIDAGI HAJVIYA

2.1. AN'ANA VA NOVATORLIK MASALASI

Badiiy tafakkur, badiiy adabiyot rivojlanashiga nazar tashlasak, undagi qator omillar – adabiy meros va vorisiylik, an'ana va yangilik, shakl va mazmun birligi, badiyyat, asar tili, obrazlar tizimi, janrlara taraqqiyoti kabi masalalar barcha davrlardagi adabiyotimizda muhim masala sifatida tilga olinishini kuzatish mumkin. Bugungi adabiyot o'tmish adabiy merosi zaminida rivojlanadi, undan oziqlanadi.

Adabiy meros deganda o'tmishda yaratilgan, umummilliy va umumbashariy qimmatga ega bo'lganidan vaqt hukmini yengib kelayotgan adabiy-badiiy qadriyatlarning jami tushuniladi. Bugungi adabiyot — o'tmish adabiyotidan qolgan merosning vorisi. Adabiy meros asosida adabiy an'analar shakllanadi. Adabiy an'ana — zamonamiz, zamonaviy adabiyotimiz uchun qimmatga ega bo'lganidan bugunda barhayot merosdir. Adabiyot taraqqiyotining uzluksiz jarayonida har bir davr o'zidan oldingi davrlardan eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi, ularni sayqallaydi, maromiga yetkazadi, ayni paytda, o'zidan ham unga yangilik qo'shishga intiladi. Shu tariqa adabiyotning uzluksiz taraqqiyoti ta'minlanadi.

Adabiyotdagi vorisiylik, an'analarga sodiqlik har bir milliy adabiyotdagi o'ziga xoslik, milliy qiyofaning yo'qotilmasligini kafolatlaydi. Boy an'anaga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari, tabiiyki, boshqalarga nisbatan yuqori bo'ladi. Masalan, xalqimizning boy adabiy-madaniy an'analari XX asr boshlaridan kuzatiluvchi yangi o'zbek adabiyotining shakllanish jarayoni tez kechishini ta'minladi: adabiyotimiz juda qisqa fursat ichida jahon adabiyotidagi yutuqlarning ko'pini ijodiy o'zlashtirdi, o'zining badiiy olamini boyitdi. Bu masalada o'zbek hajviyasini ham olish o'rinlidir. O'tmish hajviymizning yetuk an'naviy shakllari, ya'ni turli janrlari yangi badiiy-estetik qarashlar zaminida qayta ishlanib, novatorona qo'llanishishi natijasida bugungi kunda o'ziag xos badiiy estetik vazifani bajarmoqda, hajviyalar turli ijtimoiy masalalarni yoritishda muhim

asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Anvar Obidjonning epik va liro-epik asarlaridagi hajviy obrazlar fikrimizning isboti bo‘la oladi.

O‘zbek adabiyoti tarixida hajviy obrazlarning ko‘plab namulari mavjud. Zero, hajviy obrazlar yaratish an‘anasi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Xalq ertak va hikoyatlari, rivoyat va afsonalarda turli hajviy obrazlar adib asarlarida jiddiy yangilangan shaklda namoyon bo‘ladi.

Anvar Obidjon bolalar uchun ajoyib hikoyalar, qissalar va dostonlar ham ijod etadi. Yozuvchining hikoyalari, she‘rlarida bo‘lganiday, tuzilishi va kompozitsion qurilishi jihatdan juda ixcham, nihoyatda engil, qiziqarli o‘qilishi bilan kichkintoylarni tezda o‘ziga maftun etadi.

Shunisi xarakterliki, Anvar Obidjon she‘rlaridagi ayrim qahramonlarining hayoti tasvirini o‘z hikoyalarida ham davom ettiradi. Ya’ni ularda ham bosh qahramon – hayvon va parrandalarning bolalari. Ular o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqib, hayoti, quvonch va tashvishlari haqida sodda, samimiy tarzda so‘zlab beradilar.

Jamiki jonzotlarning bolalari ham bu dunyoning har kunini o‘zlari uchun kashf etadilar. Masalan, «Mushukchaning hikoyasi» qahramoni er yuzi tomdan ko‘ra o‘n besh marta, tog‘oraga qaraganda kamida ming marta kattaligini «kashf etsa», och qoringa ari yutib yuborgan qurbaqa, uyqusirab turib ovqat eyishning oqibati yomon bo‘lishini "kashf etadi". Agar jo‘ja, dadasi Xo‘rozning qip-qizil tojidan, viqor bilan yurishidan zavqlansa, nodonfe‘l xo‘tikcha o‘zining aql va farosatiga qoyil qolib maqtanadi. Yozuvchining kichik-kichik ertak-hikoyalaridagi hayvonlar insonlar singari xayol suradilar, fikrlaydilar, tevarak-atrofni kuzatadilar, hayratlanadilar. Ularning xatti-harakatlari bolalarni qiziqtiruvchi engil yumor vositasida tasvirlanadi. Misol uchun «Jo‘janing hikoyasi» qahramoni so‘zlariga diqqat qilaylik. Bu jo‘ja «uka»lariga qaraganda bir daqiqa avval tuxumni yorib chiqqan: «Mendan keyin ukalarim ham birin-ketin tuxum pachaqlashga tushishdi. YOrug‘likka chiqishgach, ular ham menga o‘xshab ko‘zlarini ocholmay turishdi. Shumshayib o‘tirishganini ko‘rib kulging qistaydi». Hikoya qahramonlari o‘zlari haqida gapirar ekanlar, go‘yo o‘z shaxsiyatlarini tasdiqlab olayotgandek

bo'ladilar. Shuning uchun ham o'quvchi ular timsolida aniq «shaxs»ni ko'rgandek bo'ladi. Bunday hikoyalar kitobxon bolada jo'shqin, xushchaqchaq kayfiyat uyg'otadi. U atrofga tiyanroq boqib, bu dunyoda o'zidan-da kichiklar borligini bilib, ularni ehtiyot qilish, asrash-avaylash zarurligini his etadi.

O'tgan asrning 80-yillari oxirlarida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ro'y bergan tub o'zgarishlar bolalar adabiyotiga ham jiddiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Yozuvchilarimizning diqqat e'tiboridan mutlaqo chetda qolib kelayotgan «o'zlikni anglash» mavzulari o'z aksini topa boshladi. Anvar Obidjonning «Oltin yurakli Avtobola»²⁵, «Alamazon va uning piyodalari»²⁶ va nihoyat «Meshpolvonning janglari»²⁷ doston-qissasi ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Muallif «Oltin yurakli Avtobola» qissasida yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi muttasil kurashni o'ziga xos yangi yo'nalishda tasvirlaydi. U yomonlikni shunchaki ko'rsatmaydi, balki uni keltirib chiqargan omillarni qidiradi va ularga chuqurroq nazar tashlashga intiladi. Shu maqsadda qissa davomida bir necha marta o'tgan voqealarga murojaat (retrospektiv) etish usulidan foydalaniladi va qissaning markaziy qahramonlari Bekxo'ja va Kamolning bolalik yillariga nazar tashlaydi. Muallifning mahorati shundaki, u o'tmishda bo'lib o'tgan kichik-kichik voqealarni eslash orqali o'quvchida har ikki bolaning tabiati, o'sha davrdagi maktab tizimi haqida bir qadar kengroq tasavvur paydo qiladi.

Maktabda har ikki bola birday a'lochi bo'lib o'qiydi. Ammo ularning ijtimoiy kelib chiqishlari har xil. Kamol – oddiy fuqaroning o'g'li, Bekxo'ja — paxtachi boyning (boy Bekxo'ja 6 oylik paytida chet elga qochib ketgan) bolasi. Ma'lumki bolalarning ma'naviy shakllanishida kattalarnint alohida o'rni bor. Agar kattalar ijtimoiy kelib chiqish haqidagi masalaga siyosiy yrg'u berishmasa, kimlarga dir sinfiy dushmanlik ko'zi bilan qarashmasa, bola buni qaerdan biladi?

²⁵ Anvar Obidjon. Ўқ ўтмас болакай ёхуд олтин юрак: Қиссалар ва ҳикоялар. – Т.: “Шарқ”, 2011. – 400 б.

²⁶ Обиджон, Анвар. Аламазон ва Гулмат хангомаси: Қиссалар, ҳажвиялар. – Т.: Чўлпон, 1992. – 3-196 бетлар.

²⁷ Obidjon, Anvar. Meshpolvon: doston-qissa / – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nsdhriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 152 b.

Bolalik yillari voqealari tasvirida muallifning Bekxo'jaga nisbatan iliq mehrini payqash mumkin. U ayniqsa, Bekxo'janing tarixni sevishi, ajdodlarimiz qahramonliklaridan faxrlanishi, ularni qadrlash kabi xususiyatlarini ma'qullaydi. Bekxo'ja tarix darsini o'qimagan, uni tushunmagan tengdoshlaridan g'azablanadi. Xususan, Muqannani Torobiy bilan adashtirgan Kamolni jiddiy tanqid qiladi va uni «kallavaram» deydi. Bunday haqoratga o'zini noloyiq deb bilgan Kamol esa uning eng nozik joyini chimchilab o'tadi: «Og'zingni yumib o'tir, sarqit!».

Muallif bu voqeani bekorga eslamaydi. U bolaning nozik qalbi bunday xaqorat, kamsitish va doshnomlardan alamli chandikdarga to'lib ketganligini, natijada u nihoyatda alamzada bo'lib o'sganligini tasdiqlash uchun keltiradi. Muallif asar tagmatnida bolani shaxs sifatida sindirishga xizmat qiluvchi bunday shafqatsizliklar haqida o'ylab ko'rishga, mushohada qilishga undaydi.

Adib Bekxo'janing tomir-tomiriga singib ketgan munofiqlik ildizlarini ham uning o'quvchilik yillaridan izlaydi. Sobiq sho'rolar vaqidagi tarbiya tizimining buyruqbozlikka, yolg'on va soxtagarchilikka, baho ketidan quvishga asoslanganligini qoralaydi. Insonning ma'naviy huquqlarini buzish avj olganligi uchun maktablardan surbet, munofiq, xudbin, loqayd kimsalarning ko'plab etishib chiqishiga sabab bo'layotganini ta'kidlaydi.

Muallif asarning quyidagi kichik voqeasida ana shu holatlarni ko'rsata olgan;

«– Mazang yo'q, Bekxo'ja, Bu safarcha «to'rt» qo'yaman.

– SHoshmang, domla, shoshmang! Bitta «besh» qarz qipturing. Mana ko'rasiz, kelasi gal...

– "Besh"niyam o'shanda olaverasan.

– Jon-on, domlajon, xudo xayringizni bersin...

– Ie, sovet maktabini machit qilvordinku. «Ikki» senga!

– Shoshilmang, domla! Bilasiz-ku, ayam kichkinaligimda eskicha o'qitgan. Til qurg'ur o'rganib qolgan bo'lsa, nima qilay? Ana, hammadan so'rang, o'zim xudoga qarshiman. Xohlasangiz avliyolarni ahmoq deyishim mumkin. Hukumatimiz bor, nimadan qo'rqaman?"

Muallif an'anaviy milliy tarbiya va sho'ro maktabi tarbiyasi, oila va maktab o'rtasidagi tafovutlar natijasida bola o'zligidan qaytishga, tashqi muhitga moslashishga majbur bo'layotganligini dard bilan tasvirlaydi.

Bizningcha, asarda Bekxo'janing 14 yoshida oyoqlari shol bo'lib qolishi ham bu mustabid tuzumning yosh avlodni ongli ravishda «ma'naviy shollik» botqog'i tomon tortganligiga ishoradir.

Ma'lumki, sho'ro davrida iqtisodiy qiyinchiliklar haqida gapirish «odob»dan hisoblanmagan, moddiy farovonlikka intilish esa insonning meshchanga aylanayotganligini va u ma'naviy jihatdan tubanlikka ketayotganligini ko'rsatuvchi birinchi belgilardan sanalgan. Buning natijasida yosh avlodga iqtisodiy tarbiya berish doimo bir tomonlama olib borilardi. YA'ni ular qalbida halol mehnatga nisbatan muhabbat uyg'otilardi, ammo undan ko'riladigan moddiy manfaatta nisbatan nafrat tuyg'usini tarkib toptirishga intilish kuchli edi. Mehnat va moddiy manfaatdorlikka nisbatan bunday soxta munosabat oxir-oqibat bolalar qalbida ishonchsizlik, loqaydlik, tanballiklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Mutlaqo mehnat qilmay, harom-harish yo'llar bilan boylik orttirishga intilish tuyg'usi kuchaydi.

Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida birinchilardan bo'lib o'z asarida yosh avlodni iqtisodiy jihatdan to'g'ri tarbiyalash, shaxsiy manfaatdorlik, pul va boylikning inson hayotidagi o'rni masalasiga e'tiborni qaratdi. U belorus shoiri R.Borodullin bilan suhbatida, jumladan, shunday degan edi: "Muhimi bolaning qalbida yoshligidanoq haqiqatga bo'lgan ishonch tuyg'usini tarkib toptirishga ulgurishdir. Su bilan birga, turlicha talqin etiladigan ayrim narsa va tushunchalarga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash darkor. Masalan, pulga nisbatan. O'smirlar pul haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishlari zarur, pulga halol mehnat qilgan odamgina ega bo'ladi. YOshlar pul bilan mehnatning uzviy birligini tushunib olishlari nihoyatda zarur».

Muallif "Oltin yurakli Avtobola" qissasida inson pulga sajda qilib, uni hayotining tub mazmuniga aylantirib yubormasligi kerakligini, hayotda undan

qimmatliroq narsalar - insonlar orasidagi mehr-oqibat, vijdon va insof, g'urur borligini kitobxonlar ongiga etkazishga intilgan.

Qissaning eng go'zal joylaridan biri Xoldor va Avtobolaga bag'ashlangan sahifalardir. Muallif unda ikki bola o'rtasida vujudga kelgan do'stlikning buyuk qudratini badiiy ko'rsata olgan.

Xoldor taqdirning shafqatsiz o'yini tufayli (Qattik, sel paytida Bekxo'janing yigitlari Kamolning olti oylik o'g'lini o'g'irlashadi) Bekxo'janing uyiga kelib qoladi. Bu erdagi o'ta tuban muhit, tevarak-atrofdagi xizmatkorlarning badfe'lligi bilan birga, ona mehriga tashnalik, erksizlik, «Dil g'ashliklarini dala-dashtlarga sohib kelish imkonidan mahrum»ligi Xoldorning «yoshiga nomunosib» qo'rs va tajang bo'lib qolishiga sababchi edi. Bekxo'ja Kamolga qasdma-qasd Xoldordan «betamiz bezori» tayyorlashni niyat qilgan. Shuning uchun uning qalbida ezgulik, insoniylikka xos sifatlarni hali nish urmasdan yuq qilish ilinjida bo'ladi. Qissada Avtobola Xoldorning hayotiga nur olib kiradi. Xoldor bu po'lat odam bilan emin-erkin o'ynab, quv nab, ruhan chiniqadi. Fantastik obraz Avtobola ayyorlikni mutlaqo bilmaydigan to'g'riso'z odam, soddadillik, mehribonlik va pokizalik timsoli. U o'zining ana shunday hislatlari bilan Xoldor qalbiga qattiq o'rnashib qoladi. Uning diliga ezgulik urug'larini sochadi. Muallif har ikki kichik qahramon obrazida bola va muhit, bola va kattalar, bolalar dunyosining o'ziga xos qirralarini ishonarli ochishga, ko'rsatishga erishgan.

Qissada o'ta xudbin va kekchi, hayotning mazmuni faqat pul, boylik to'plashdan iborat deb biladigan, bu yo'lda har qanday qabihlikdan ham toymaydigan, ma'naviy va jismoniy shol kishi Bekxo'ja va uning to'dasi haqli ravishda jazosini topadi. Bu holat odamni o'ylatadi. Tabiat insonni oliy darajada ongli qilib yaratibdi. U, hatto o'ziga Avtoboladek mukammal robotlarni yasab olish qudratiga ham ega. Ammo ba'zi odamlar gohida oddiy narsalar oldida ochko'z va ojiz kimsalarga aylanib qoladi. Nega? Bu insonning ma'naviyati bilan bog'liq g'oyat muhim, dolzarb masala, azaliy muammo.

Anvar Obidjonning «Oltin yurakli Avtobola» qissa-choʻpchagi yosh kitobxonlarni oʻta jiddiy hayotiy masalalar ustida oʻylashga undashi bilan ham diqqatga sazovordir.

Maʼlumki, oʻtgan asrning saksoninchi yillari oʻrtalaridan boshlab xalqimizning tarixga, ajdodlar merosini oʻrganishga boʻlgan qiziqishi kuchaya bordi, bu mavzuda qator asarlar yaratildi. Bu davrda bolalar adabiyotida ham tarixiy-ijtimoiy masalalarni aks ettirishga moyillik sezilarli darajada kuchaydi. Ayniqsa, X.Toʻxtaboev, N.Aminov, O.Begaliev, S.Salimov va boshqa bolalar adiblari bu mavzularda qiziqarli asarlar ijod etdilar.

“Dahshatli Meshpolvon” doston-qissasini qayta oʻqish jarayonida ham tugʻildi. Gap xalq ogʻzaki ijodining Anvar Obidjon ijodiga taʼsiri, xususan, “Alpomish”ning adibning “Dahshatli Meshpolvon” doston-qissasiga turtkisi xususida. ‘

“Alpomish” – vatanparvarlik, erk va mustaqillik uchun kurash ruhidagi asriy qahramonlik qoʻshigʻi ekani maʼlum. Undagi Alpomish, Barchinoy, Qaldirgʻoch, Qorajon obrazlari Vatanning fidoyi farzandlari, millat or-nomusi timsoli, adabiy ibrat namunasidir. Biroq oʻzbekning, turkiy qavmlarning oʻlmas “Alpomish”i qayoqda-yu, Anvar Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” asari qaerda, dersiz. Bu adabiy aloqadorlikni nima yaqinlashtiradi-yu, nimalar uzoqlashtirib turadi? Uzoqlashtirgan jihati – vaqt, zamon masofasi. YAqinlashtirgan tomoni esa har ikki asarning erk va mustaqillik uchun kurash mavzuiga bagʻishlangani, millatning asriy orzu-armonlarining badiiy ifodasi ekanligida.

Jahon bolalar adabiyotining Don Kixot, CHipolinno, Buratino, Karlson, Hoshimjon, Alamazon obrazlari Meshpolvon harakteriga yaqin. “Dahshatli Meshpolvon” ijodkorning oldingi asarlari kabi satira-yumorga yoʻgʻrilgan boʻlsa-da, unda sarkazm, grotesk, ramz-timsol, kinoyaviy-istehzoli uslub boʻrtib koʻzga tashlanadi.

Asar syujeti Sepkilshohning bosqinchi qoʻshinlari tinch-osoyishta hayot kechirayotgan mamlakatni talab, odamlarni qul qilib haydab ketishdan boshlanadi. Qahratoniya (Sibiriya)ga olib ketilayotgan bandilar orasida qahramonimiz

Meshpolvonning yarador dadasi va ko‘zlari kiyiknikidek chiroyli onasi ham bor edi. Vaqt-soati etib, Meshpolvon ota-onasini qutqazish maqsadida, el-yurt hurligi uchun “milliy ozodlik” kurashiga otlanadi.

A. Obidjon yosh qahramoning zakiy polvon, ham xomsemiz o‘smir sifatidagi sarguzashtlari o‘quvchini sehrlab oladi. Meshpolvon o‘zi aytmoqchi, anchayin mechkay, ebto‘ymas, bir qadar tekinxo‘r. Boshda buvisining qo‘liga qarab, “bersang – eyman, ursang – o‘laman”, deb o‘tiradi. Ammo aqlan etishib, ota-onasini bosqinchi dushmanlar asir qilib olib ketib azoblayotganlarini anglab, qalbida isyon tuyg‘usi jo‘sh uradi. Uni harakatga keltirib, katta maqsadlarga etaklovchi kuch bu – qondagi azaliy vatanparvarlik va mustaqillik tuyg‘usi. Bu yo‘lda u “qo‘mondonlik” tuzar ekan, turli hunar va yoshdagi millat vakillarini jamlaydi. Hatto engil hiyla bilan ilonchalar CHika va Puka xizmatidan ham o‘rinli foydalanadi.

Doston-qissada bir timsol-ramz bor. Bu asarda bot-bot keladigan, qahramonning og‘zidan tushmaydigan, qolaversa, bolalar folklori mulkiga aylanib qoladigan to‘rt qator she’r:

Olma edim baqalog‘idan,

Gilos edim chaqalog‘idan,

Anjir edim yapalog‘idan

Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

Bu afandisifat yosh qahramonning tish-tirnog‘igacha qurollangan jihozlari ham juda alomat: ostida oqsoq xachir, qo‘lida dastkalla, o‘qlov, qalqoni – qozonning yog‘och qopqog‘i. Meshpolvon ozodlik-qasoskorlik yurishining ishtirokchilaridan Go‘ro‘g‘libek, Ravshanxonlar avlodi – Oshiqbolaga muallif shunday ta’rif beradi:

“Oshiqbola uch yoshida ariqdan sakrab o‘tadigan, to‘rtida harf bitadigan, beshida kitob titadigan, oltisida o‘zini otda erkin tutadigan, ettisida nonga xanjarda yog‘ surtadigan, sakkizida o‘q-yoy bilan tangani yirtadigan, to‘qqizida tuxumni

xom yutadigan, o'nida polvonlarni elkada turtadigan, o'r birida uyida oshna kutadigan, o'n ikkisida haftalab ovga ketadigan bo'ldi..."

Nasriy qofiyali sa'j usulidagi bu badiiy bayon xalq dostonchiligidan sizga yaxshi tanish. Anvar Obidjon doston-qissada mavjud adabiy an'analardan ijobiy foydalanadi. CHunonchi, Oshiqbola bilan bir qur jangarilarcha talashib olgan Meshpolvon bo'lajak hamrohiga o'z maqsadini bayon qiladi:

*Yo'lga chiqsam asosim bor,
Sepkilshohda qasosim bor.
Elimni u talab o'tdi,
Asalimni yalab o'tdi.
Kallalardan qasr qildi,
Ko'pchilikni asir qildi.
Pahlavonim dadam – unda,
Mehribonim onam – unda.
Borib ozod qilayin deb,
Enamni shod qilayin deb,
Qo'g'irmoch eb, kuchni to'plab,
Yo'lga tushdim, kaftga tuflab...*

Safar davomida qaram xalqning ayanchli turmushi manzaralari ochila boradi. Mazanglar (lo'lilar) qishlog'iga yaqinlashgan Meshpolvon bilan Oshiqbola qiziq xodisaning guvohi bo'lishadi. Bosqinchi Sepkilshohning joylardagi vakillaridan Nahang o'lponchi mazang kampirning chirmandasiga soliq soladi. Bu o'lpondan sarosimaga tushgan lo'li kampir: "Etmish yil sanqib, sakson mamlakatni ko'rdim. Lokin chirmandaga soliq solganlarini birinchi bo'lib, san muttaham aytding", deya o'z noroziligini bayon qiladi:

*Soliq solding erimga,
Qo'ydan shilgan terimga,
Soyda yuvgan kirimga,
CHirmandamga yopishma.*

*...Qizlar to'lar xol puli,
 Kampir to'lar chol puli,
 CHol to'lar soqol puli,
 CHirmandamga yopishma...*

Haddan oshgan adolatsizlikdan pichoq borib suyagiga etgach, oqibat Oshiqbola yordamida Nahang-qaroqchilarning adabini berib qo'ygan Meshpolvon lashkariga yana bir sodiq askar – lo'li bola CHumakvoy ham qo'shiladi. Ko'p o'tmay, tuya mingan CHumakvoy yoniga qo'chqor mingan Rayhon qiziq qo'shiladi...

Dostondagi qahramonlar mingan xachir, g'iroat, tuya, qo'chqorlar ham o'z xo'jayinlari fe'l-atvorining shakllanishiga munosib hissa qo'shishadi. Asarda inson, hayvon obrazlaridan tashqari doston-qissaning boshdan-oyoq mehmonlaridan bo'lgan bir qahramon obrazi ham borki, bu Oltiariq tumani va oltiariqliklardir.

Afandisifat bolakay Meshpolvon ham Oltiariqdan chiqib, shunchaki hangomatalablik bilan mushkul safarga otlanayotgani yo'q. Uning muqaddas orzu-maqsadi bor. Sepkilshoh boshliq bosqinchi yovlar oyog'i ostida toptalib yotgan Vatanni ozod, qadimgiday mustaqil va obod qilish uchun kurashmoq, jang qilmoq lozim. Bu yo'lda u jiddiy sinovlarga duch kelarkan, o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Tajribasizligi, bilimsizligi gohida qahramonimizga pand berib, yo'ldan ozdirganday bo'ladi. Biroq asosiy masala – imon va e'tiqod sobitligida, hech qanday kuch Meshpolvonni ezgu niyatidan chekintirmaydi.

Nihoyat, lashkar ishg'ol qilinishi lozim bo'lgan Sepkilshoh saltanati poytaxtiga yaqinlashar ekan, Qizqo'rg'onga etib keladi. Bosqinchi turli mamlakatlardan qul-asira qilib keltirilgan go'zal qizlarni shu qo'rg'onda "tarbiyalab", so'ng sayillarda katta pulga sotar ekan. Asarda bir ko'rinish berib o'tgan bukri chol tilidan muallif bu voqeaga shunday munosabat bildiradi:

Qilni savdo qilishar,

Filni savdo qilishar,

Dilni savdo qilishar,

Tilni savdo qilishar.

Qanday zamon keldiki,

Paydo bo'lsa qizbozor?

Sepkilshoh saltanatining ma'naviy chirikligini ifodalashda qo'l kelgan bu detal yanada kuchaytirilib, sovet zamoni metod-aqidalaridan biri badiiy ifodalanadi: Qanot chiqarib tepadan tushishga intilib, o'z shohining g'azabiga duchor bo'lgan lashkarboshini jazolash uchun vaziru nozirldar kshp usullar taklif qilishadi. Ammo Sepkilshohning o'z sinalgan usuli bor:

Urinmaylik oqlash uchun,

Do'stni omon saqlash uchun.

O'ligiga yig'lash uchun

Tepkilaylik o'zimiz.

Sepkilshoh va Meshpolvon lashkarlari o'rtasidagi jang avj pardaga chiqadi.

Goh osmonni o'rab uvlar,

Narvonlarni burab uvlar,

YOvni qordek kurab uvlar

Meshpolvonning askarlari.

Ushbu hayot-mamot jangida nihoyat nur zulmat ustidan, adolat yovuzlikdan ustun keladi. Sepkilshoh bandilari ham isyon ko'targach, Meshpolvon lashkarlarining qo'li balandlashadi. Bandilarga bosh bo'lgan isyonkor-yo'lboshchi (Meshpolvonning otasi) ozodlik lashkariga kelib qo'shilgach, ko'ngilsiz vaziyatning ustidan chiqadi. Ozodlik kurashi rahnamosi Meshpolvon boshidan qattiq jarohatlangan edi. O'g'il ustida ota faryod chekadi:

YOv chiritgan o'tloq uchun,

YOv quritgan buloq uchun,

YOv iritgan tuproq uchun

Kichik joning kerakmidi?

*So 'lib bitgan gulshan uchun,
Oyoqdagi kishan uchun,
Toptalgan or-u sha'n uchun
Kichik joning kerakmidi?*

Xayriyatki, kurashlarda pishgan, chiniqqan qahramonimiz og'ir xastalikni engib, ko'z ochadi. Tez fursatlarda tuzala boradi...

Ota-ona, qarindosh urug'lar, millatdoshlar, Vatan ozod bo'ldi! Qahratoniya Meshpolvonning vaziri – Go'ro'g'libek avlodi Oshiqbola qo'liga o'tdi. G'alaba nashidasi, to'yu tantana, bayram boshlandi. Oshiqbolani Oytumorga uylantirayotgan Meshpolvon o'zi ham tabib qiz Achaxonni ko'z ostiga bosib, saltanatning poytaxti Oltiariqqa olib ketish payidan bo'lib turibdi...

Xuddi alomat multfilmni eslatuvchi ushbu doston-qissa omon-omonlik, g'alaba bilan yakun topadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asar bugunda ming yilligi nishonlanayotgan "Alpomish"ning davomi, ozodlik haqidagi yarim hazil, yarim chin niyat-bashoratning badiiy-ramziy ko'rinishi.

2.2. ADIB QISSALARIDA HAJVIYA VA SARGUZASHT

Anvar Obidjon 70-yillarning oxirlarida yaratilgan «Alamazon va uning piyodalari» (bu asar dastlab 1983 yilda "Ey, Yorug' dunyo" nomi bilan nashr etildi) qissasida, 80-yillarning oxirlarida bitilgan «Meshpolvonning janglari» dostonlarida hamda bir necha she'riy ertaklarida Vatan ozodligi, erk uchun kurash masalasini tarixiy mavzuga uyqash tarzda ko'tarib chiqadi.

«Alamazon va uning piyodalari»dagi voqealar afsonaviy shahar Yulduzistonda bo'lib o'tsa, «Meshpolvonning janglari»dagi voqealar turli qishloqlarda, mustabid shoh taxti joylashgan «Qahratoniya»da ro'y beradi. SHunisi e'tiborga sazovorki, har ikki asarda ham agar davlat boshliqlari ongsiz bo'lishsa, muttahamlik, xudbinlik, laganbardorlik, mansabparastlikka yo'l ochiladi va o'lkasi jannatmakon, odamlari qanchalar pokizafe'l bo'lmasin, har qanday jamiyat, oxir-oqbat «yurti iflos xandaqqa, xalqi irkit maxluqqa» aylanishi mumkinligi kuyunib bayon etiladi.

Asarning ichki mazmun-mohiyatidan unda sobiq sho'rolar jamiyati nazarda tutilayotganligi ochiq-oydin sezilib turadi. Qissa qahramoni Alamazon, ko'plab tengdoshlari qatori, nihoyatda xayolparast va ta'sirchan. Uning ma'naviy dunyosi shakllanishida badiiy asarlarning o'rnini beqiyos. Alamazon kitob o'qib zavqlanadi, qattiq ta'sirlanadi, asar qahramonlariga yurakdan havas qiladi, ularga o'xshab odamlarga ezguliklar va yaxshiliklar qilish, jasoratlar ko'rsatish orzusi bilan yonadi, hayotga cheksiz ishonch va umid bilan qaraydi.

Muallif o'smirdagi mana shu sifatlarni mehr bilan ko'rsatar ekan, bunday sifatlarga ega bo'lgan inson xalqning og'ir ahvolini ko'rib loqayd o'tib ketolmasligini, ifloslik anqib turgan havodan bemalol nafas ololmasligini ta'kidlaydi.

Yana shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, muallif o'z qahramonlarida (bolalarni nazarda tutayapmiz - Z.I.) uchraydigan salbiy xususiyatlarni ham o'ziga xos bag'rikenglik bilan tasvirlaydi. Xususan, «Alamazon...»dagi Eshmatning bir qadar loqaydligi, qo'rqqoqligi ochiq ko'rinadi. U hatto zolim Iskirt Birinchining saroyida qolishga rozi bo'ladi. Yoki Meshpolvon shu darajada xo'raki, hatto do'stlariga ovqat qoldirmay, hammasini o'zi eb qo'yadi, yoxud «0099 nomli yolg'onchi» ertagidagi Uloqcha o'ta yolg'onchi, mansabparast, aqlsiz. U o'zining manfaatparastligi bois do'stlarining boshiga ko'p kulfatlar tushishiga sababchi bo'ladi. Ammo do'stlari uni tashlab ketmaydilar yoki qatgiq tanqid ostiga olib, jazolamaydilar. Muallif ularning o'z kamchilik va xatolarini tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Bu qahramonlar misolida odamlar bir-birlariga nisbatan kengbag'irroq bo'lishlari kerakligini, sherigidagi kamchilik va xatolarni tuzataman deb, ba'zan qalbini sindirib qo'yish mumkinligini, bundan ehtiyot bo'lish lozimligini asarlari mamzuniga mahorat bilan singdira olgan.

Ma'lumki, ma'naviyat, axloqiy tarbiyaning asrlar davomida hayot sinovlaridan o'tgan o'z usullari bor. Ularda daryodillik inson uchun etakchi mezon ekanligiga ta'kidlanadi. Xalq dostonlarida uchraydigan quyidagi to'rtlik fikrimizning dalilidir:

**Yaxshi etdi murodga,
Yomon qoldi uyatga.
Yomon odam yomondir,
U ham etsin niyatga.**

Dono xalqimizning inson haqidagi ushbu falsafiy konceptiyasini Anvar Obidjon o'z asarlarining mag'iz-mag'iziga mahorat bilan singdiradi.

Anvar Obidjonning «Meshpolvonning janglari» asarida Vatan xalq ozodligi uchun kurash, insonparvarlik g'oyalari an'anaviy doston janrida o'z badiiy aksini topgan. O'zbek adabiyotining ildizlariga nazar tashlasak, asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy kurashlar, ozodlik va tenglik hamda qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallar doston janri imkoniyatlari doirasida boshqa janrlarga nisbatan keng aks ettirilgan.

"Meshpolvonning janglari" asarida johillik, xudbinlik, yovuzlik timsoli bo'lgan bosqinchi Sepkilshoh hukumatining yolg'onga, tuhmatga, quruq safsataga, odamlarni laqillatishga asoslangan siyosati quvnoq yumor, achchiq istehzo bilan masxaralanadi, ayovsiz fosh qilinadi. Uni tor-mor etgan yosh pahlavonlar, qo'rqmas botirlar ulug'lanadi. Keng ma'nodagi go'zallikning yovuzlik, chirkinlik ustidan g'alaba qilganligi sharaflanadi.

Dostonning markaziy qahramoni Meshpolvon an'anaviy dostonlardagi kabi atrofdagilardan tom ma'noda ajralib turadi. Agar Alpomish etti yoshidayok. bobosidan qolgan o'n to'rt botmonlik kamonni ko'tarib Asqar tog'ining cho'qisini uchirib yuborganligi, Rustamxon o'n ikki yoshida dev bilan olishib, g'alaba qilganligi bilan ajralib tursalar, Meshpolvon nihoyatda ko'p ovqat eyishi, o'ta qaysarligi, lof-qofga mohirligi va tashqi ko'rinishining g'ayritabiiyligi bilan ajralib turadi. O'z-o'zidan savollar tug'iladi: yozuvchi bunday salbiy xususiyatli, payti kelsa yolg'onni suvdek ichadigan maqtanchoq bolani nima uchun markaziy qahramon qilib olgan? Nega unga nisbatan o'quvchilarda xayrixohlik uyg'otishga intilgan? Bu xalqimizning bola tarbiyasi bilan bog'liq an'anaviy mezonlariga tug'ri kelmaydi-ku?

Bular nihoyatda to'g'ri va haqli savollar, albatta. Buni yozuvchining o'zi ham chuqur o'ylagan va asarining ayrim o'rinlarida yuqoridagi savollarga ma'lum darajada javob ham bergan. YOzuvchi dostonning ba'zi o'rinlarida o'z o'quvchilari bilan suhbatlashadi, ularning savollariga javob beradi. Masalan, «E, bolasi tushmagurlar-a! Zap g'alati kitobxonlarga uchradi-da. Boya aytuvdim-ku menga halaqit bermay turinglar deb. YAna o'sha ahvol - mana endi: «Meshpolvon olijanob maqsad bilan yo'lga chiqqan bo'lsa-yu ovqatxo'rliqiyam mayli, lekin namuncha yolg'onni ko'p gapiradi?» deb so'rayapsiz. Insof bilan aytganda, ochofatlik ham, to'qib so'zlash ham bo'lmagur narsa. Ayniqsa yolg'onni hamma yomon ko'radi. Ammo aldoqchilikning atrofdagilar uchun xatarlisi bor, xatarsizi bor, ba'zilar zararli, ba'zilar bezarar. SHu nuqtai nazardan qaraganda, Meshpolvodan ortiqcha o'pkalashimizning hojati yo'q deb o'ylayman. Qolaversa, o'zingiz yuqorida aytganingizdek, uning maqsadi ezgu, yuragi toza. Aynan mana shu ikki narsa Meshpolvonning istarasini mengayam, sizgayam issiq ko'rsatib, kamchiliklarini xaspo'shlab turgan bo'lsa ajabmas...».

CHindan ham doston markaziy qahramonining maqsadi ezgu, oliy, qalbi top-toza. Uni mubolag'ali, bo'rttirib tasvirlashda Anvar Obidjon yozuvchilarga berilgan barcha huquqlardan san'atkorona foydalangan.

Muallif Meshpolvonning qanday qilib shuhrat qozonishi, el-yurt ardog'iga sazovor bo'lish darajasiga ko'tarilishini ishonarli ko'rsatish maqsadida uning ma'naviy shakllanish bosqichlariga jiddiy e'tibor beradi.

Dastlab Meshpolvon enasining hamiyatga tegadigan gaplaridan dili og'rib, safarga o'tlanadi. Uning bu safardan bosh maqsadi, avvalo, o'z shaxsiyatini tasdiqlash («Erkaklik nimaligini bizdan ko'rasiz») edi, lekin safar qiyinchiliklari, qishloqlardagi og'ir, QASHSHOQ hayot, zulm, sotqinlik, xiyonat uning ma'naviy dunyosini o'zgartiradi. Agar Meshpolvon safarining boshida birinchi qiyinchilikka uchrab, qum to'zonida qolganida xachirini asrashni hayoliga ham keltirmay, «Hayvon boshimdan sadaqa», deb hech ikkilanmay undan voz kechgan bo'lsa, keyinchalik tutqinlikda och-nahor qolganlarida ulovidan ayrilishni xayoliga ham

keltirmaydi. Rayhon qiziq qo'chqorini so'ymoqchi bo'lganida, qalqon bo'lib uni asrab qoladi. Uning ongida, tafakkurida o'zgarish ruy beradi. Qiyinchiliklarda o'ziga yo'ldosh bo'lgan bu tilsiz hayvonlarning qanchalik qadrdon va aziz bo'lib qolganligini his etadi, o'zini-o'zi engishga kuch topadi. Muallif umumiy maqsad tufayli birlashib, do'tslashib ketgan Oshiqbola, Rayhon qiziq, CHumakovoy va Meshpolvonlarni o'ta dramatik voqealar, qiyinchiliklar sinovidan o'tkazadi. Meshpolvon asta-sekin hayotga, atrofda sodir bo'layotgan voqealarga chuqurroq nazar tashlashini, mulohazaliroq bo'la borishini muallif bir-biridan qiziq va dahshatli voqealar davomida ko'rsatib beradi. Masalan, Iblisjar xoqonining evarasi Hojixon ajina Meshpolvonning yoniga kelib, o'zi bilan o'rtoq bo'lishni taklif etadi. Ular o'rtasida shunday suhbat bo'lib o'tadi:

- O'rtog'im bo'lsang, seni bu jordan qutqarishim mumkin.

– Meni xolosmi? Bularni-chi? – deb savol berdi Meshpolvon, sheriklarini ko'rsatib.

—Hamma gap shunda-da. Yo ularni deysan, yo meni.

Hayotda har bir inson umrining qaysidir pallasida ikki yo'ldan birini tanlashi kerak bo'ladi. Bu mas'uliyatli pallada go'yo taqdir seni sinaydi. Agar Hojixon ajina Meshpolvon sarguzashtlarining boshida uchraganida u hech bir ikkilanmay o'zini kutqarish yo'lini tanlagan bo'lardi. Ammo qishloqma-qishloq yurib, xiyonat va sotqinlikning achchiq, jirkanch izlarini ko'rib saboq olgan, endi xiyonat haqidagi qo'shiqlarni eslab, baxshining «Anqovlikni oqlash mumkin, YAlqovlikni oqlash mumkin, Xiyonatni oqlab bo'lmas», kabi satrlari mag'zini chaqa oladigan darajaga etgan Meshpolvon bu gal o'ylanib qoladi, qalbida ichki kurash ketadi. Bir daqiqada fikri uchqur otdek har yonga borib keladi. «YUrtda qanday bosh ko'tarib yuraman?» - degan o'y-xayoldan so'ng Meshpolvon: «– Yo'q, bunisi bizga to'g'ri kelmas ekan», degan kat'iy qarorini aytadi. SHu tariqa Meshpolvon ruhiy-ma'naviy jihatdan o'sib boraveradi.

Muallif Meshpolvonning sarguzashtlari tasviri orqali bosqinchilar bosib olgan mamlakatning tang ahvolini, mustabid tuzumning jirkanch qiyofasini imkon

qadar keng ko'rsatishga intiladi. Bosqinchi podshoning xizmatkorlari xo'jayinidan ham zulmkor va razil bo'lishini, xalq bundan yanada ko'proq aziyat chekishini, ayniqsa, Nahang o'lponchi obrazi misolida badiiy asoslab beradi.

Muallif zulmkor podshoning yovuzliklari tufayli xonavayron etilgan ming-minglab qishloqlardan biri Mingpoda qishlog'i Haqida gapirar ekan, odamlarning naqadar ma'naviy jihatdan qashshoqlashib ketganligini, hammasi o'z ishini bitirish, o'z nafsini qondirish bilan band ekanligini kuyunib yozadi. Qo'rqitilgan va xo'rlangan odamlarning bir-biriga mehr-oqibatsizligi o'z ortidan befarqlik va sotqinlikni boshlab kelishini, bunday odamlarni dushman hech bir qiyinchiliksiz tobe etishini, osongina tizginlab olishini achchiq alam bilan hikoya qiladi. Dostondagi bunday sahifalar o'quvchilarni axloqiy muammolar haqida o'ylashga, mulohaza yuritishga undaydi.

Yozuvchi Mingpoda qishlog'ining qurumli ko'chalarida ko'ngilga iliqlik olib kiruvchi pokizalikni bolalarda ko'radi. Faqat ulargina loqayd emas, yanglikka, o'zgarishlarga tashna. SHuning uchun: «Faqat bolalargina g'alati qurollanib, ho'kizteri yopingan jangchini (Meshpolvonni - Z.I.) alohida qiziquv bilan tomosha qilishib, ko'chama-ko'cha ergashib borishdi».

Yozuvchi shu qishloq chegarasidagi «suvsiz toshhovuz, qurigan chinor» tagida turgan epizodik obrazlardan biri Gadoyning so'zlariga ham katta ma'no yuklaydi. Gadoy inson tanasidagi har bir a'zoning o'z vazifasi borligi, odamlar esa ularni mutlaqo adashtirib yuborganligi haqida, bir qaraganda o'ta tuturiqsiz gaplarni gapiradi: « - Ho', odamlar! Mayli burnimni oling, ortiqcha ko'z, quloqlarni menga topshiring». Ammo, bu so'zlarning ma'nosini chuqurroq o'ylab ko'rsak, haqiqat oydinlashadi. Bu oydinlikni Gadoyning o'zi quydagicha izohlaydi: « - Olamdagi eng qimmatli jonzot – odam, – deya shohona qiyofada osmonga qo'lini bigiz qildi gadoy. - Chunki unda aql bor, idrok bor. Aqlu idrokniyam, farosatniyam ko'z bilan quloq boyitadi. Biz bo'lsak, burun bilan yashayapmiz, til bilan kun ko'rayapmiz. Iskovuchmiz! Chaqimchimiz!» Bu so'zlar zamondoshlarining

loqayd va hamiyatsizligidan, sotqin va xiyonatkorligidan xunobi oshgan bir bechoraning qalb nidolari bo‘lib yangraydi.

Muallif shu tariqa o‘quvchini tevarakka ko‘zlarni kattaroq ochib boqishga, ro‘y berayotgan nohaqliklarni payqashga, oh-vohlarni eshitishga va nihoyat, ularni insonlarday yashashga, buning uchun kurashishga chaqiradi. Ammo, afsus, ma’naviy qashshoqlashtirilgan xalqning aslida insonday yashamog‘ining iloji yo‘q. SHuning uchun jondan kechib bo‘lsada, da’vatkor hayqirayotgan Gadoyning urinishlari bunday muhitda befoyda ekanligi Meshpolvonning tushida namoyon bo‘ladi. «Chorrahadagi gadoy olovrang bulutlarga tikilganicha haliyam o‘sha joyida o‘tirganmish. Faqat endi avvalgiday g‘alati-g‘alati gaplarni gapirmas, gapiray desa tili, ovqat ey desa jig‘ildoni yo‘q emish. Burnini ham kesib olishganmish. Bularning evaziga tashlab ketilgan bir uyum ko‘z, quloq, til, yurak kabilar uning oldida qalanib yotgan emish».

Mustaqilikka erishgunimizga qadar xalqimiz moddiy va ma’naviy jihatdan xuddi shu gadoy kabi aftodahol ahvolga tushgan, haqiqatni gapiray desa tili, nola qilsa, tinglaydigan quloq, yo‘q edi. Eshitadigan quloqlar, ko‘radigan ko‘zlar, fikr yuritadigan miyalar, botir yuraklar yulib olingan va o‘zligini yuqotib bir uyum keraksiz narsalarga aylantirilgan edi.

Anvar Obidjon ushbu dostonida nafaqat ezilgan va talangan xalqni, toptalgan ma’naviy meros va madaniyatning ayanchli ahvolini ko‘rsatadi, balki bu holning sababchilari bo‘lgan saroy ahlining haqiqiy yuzini ham ochadi. Doston boblaridan birida Sepkilshoh qasrida bo‘lib o‘tgan jang rejasining muhokamasi bayon etilgan. Podshohlik sarosimada, amaldoru xizmatkorlar tahlikaga tushib qolishgan. Ammo «zo‘r»larning fikrlashlari shu darajada ojizki, ular omma g‘azabining qudratini zarracha hisobga olishmaydi, xo‘rlangan yurtdagi haqiqiy holatga to‘g‘ri baho berisholmaydi. Engilishayotganining sababini o‘z adolatsizliklaridan emas, balki lashkarboshining qo‘rqoqligi va uquvsizligidan ko‘rishadi. Uni qanday jazolash yuzasidan qizg‘in bahs ketadi. Ular tomonidan bildirilayoggan har bir fikr tubida qo‘rqinchili shafqatsizlik bo‘rtib ko‘rinib turadiki, bu o‘quvchi qalbida dahshatli his-tuyg‘ular

qo'zg'otdi. Bu holatdan hatto shoh ham «seskanib ketadi» va ularni «insof»ga chaqirib, shunday «aqli» taklif kiritadi: Lashkarboshini «ko'pchilikni oldida sharmanda qilib jazolashimiz yaxshimi?... Kelinglar, adashgan do'stimizni shu erda urib o'ldiraylik». Bu taklifni mute amaddorlar o'sha zahotiyiq qo'llab-quvvatlaydilar: «Olamga kelib, bunday insonparvarlikni ko'rmaganman». Myallif shu tarzda Sepkilshoh va uning «o'ta aqli» amaddoru xizmatkorlari basharasini ortiqcha izohlarsiz fosh etadi. Ularning aslida hech narsaga arzimaydigan, munofiq pastkash, bemulohaza, ayni paytda yovuz, qahri qattiq, jallod tabiat kimsalar ekanligini ravshan ko'rsatib o'tadi.

YOzuvchi o'z dostonida hukmdorlarning butun kirdikorlarini kulgili, kinoyali tarzda ochar ekan, Vatanni va xalqni ularning zulmidan qutqarish zarurligini o'quvchining kulog'iga qayta-qayta quyib boradi. Agar xalq birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, uning qo'lida haqiqiy qurol o'rniga o'qlov, dastkalla va qozon qopqoq bo'lsa ham, dushman otliqlariga qarshi cho'loq xachirda jang olib borsa ham, erkinlikka, istiqloлга, mustaqillikka erishishi muqarraligi Meshpolvon va uning do'stlari obrazlari timsolida ko'rsatib beriladi.

Biz dostonning asosiy konceptsiyasi milliy ozodlik uchun kurash ekanligini kengroq ochib berishga intildik. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, yozuvchi bu konceptsiyani badiiy yoritishda doston janriga xos an'analardan, saj', mubolag'a, o'xshatish, yumor, satira usullaridan, voqealarni nutqning she'riy va nasriy xillari qo'shilmasida bayon etish kabi badiiy, ifodaviy vositalardan mahorat bilan ijodiy foydalangan. Qahramonlar xatti-harakatlarini, qalb kechinmalarini kulgili vaziyatlar ichida ko'rsatish, ularga mos ohanglarda ifoda etish dostonning etakchi xususiyatlaridan biridir. Masalan, dostondagi markaziy qahramonning «katta jang»ga o'tlanishiga sabab bo'lgan voqea saj' usuli vositasida shunday tasvirlanadi: «Laylak o'tib g'oz keldi, bahor ketib yoz keldi. Jo'jalar xo'rozga, kurtaklar charosga aylandi. Boshhoqlarga o'roq, qovunlarga pichoq tegib, jazlar bir qozon, tandirdagi o'tlar alamazon bo'ldi. Mana shunday fayzli kunlarning birida Meshpolvon o'tin yoraman deb to'nka yaqinida turgan sopol tog'orani sindirib qo'ydi». Tog'ora sinishi tufayli enasidan egan dakkisi, shu kichik sabab katta voqealarning boshlanishiga

turtki bo‘ladi. YOki «ulug‘ jangga» otlangan Meshpolvon – oyoqyalang. U «xachirni etaklab enasining qoshiga bordi, uning shalpildoq kalishiga suqlanganicha bir so‘z dedi». YOzuvchi o‘quvchi qalbini kuchliroq hayajonga keltirish uchun Meshpolvonning samimiy yumorga boy nutqini an’anaviy dostonga xos she’riy usulda quyidagicha bayon etadi:

**Sepkilshohning elatiga qilay yurish,
Bo‘lar endi dunyoda eng katta urush,
Noqulaydir yalangoyoq jangga kirish,
Enajonim, kalishingni berib turgin.**

...

**Qozon qopqoq yuragimni asrab yurar,
Sepkilshohing kimligimni endi ko‘rar,
Falabaga bitta kalish etmay turar,
Enajonim, kalishingni berib turgin.**

Muallif dostonda ena timsolida ko‘pni ko‘rgan, aql-zakovatli, o‘ta kuyunchak kekxa ayolning milliy obrazini yaratishga erishgan. Uning nevarasiga aytayotgan nasihatlar, ertaklardagi xalq donishmandliklarining nasriy va she’riy nutq qo‘shilmasida bayon etiladi:

**Uchrasa ham o‘tinchi,
Salom bergin birinchi,
Seni ko‘rgan har sinchi
Odobsiz deb bilmasin.**

...

**Tentak so‘ksa, do‘qlama,
YOng‘oqzorda uxlama,
Alam o‘tsa yig‘lama,
Bardoshlilar o‘lmasin.**

...

YUvoshga musht do‘layma,

**Zo‘rni ko‘rsang, go‘layma,
Och qolganda sulayma,
Qizlar sendan kulmasin.**

Anvar Obidjonning «Meshpolvonning janglari» dostoni chuqur milliy ruhda yozilgan. Dostondagi ijobiy qahramonlar zukkoligi, qo‘rqmasligi, tadbirkorligi, o‘ziga xos qiyofasi, ma’naviy go‘zalligi bilan kitobxon qalbidan mustahkam joy oladi. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, muallif o‘z ijobiy qahramonlarini butunlay benuqson, hamma ishlarni bajarishga qodir ideal inson sifatida ko‘rsatishga harakat qilmagan. Qahramonlardagi ba’zi kamchilik va nuqsonlarining paydo bo‘lish sabablarini, ularni bartaraf etish yo‘llarining badiiy asoslanishi bu qahramonlarning kitobxonlar ko‘z o‘ngida jonli va hayotiy shaxslar bo‘lib gavdalanib turishini ta’min etgan.

«Meshpolvonning janglari» – zavq-shavq bilan o‘qiladigan juda qiziq doston. Bu asar yosh avlodni «toptalgan orzu sha’ni uchun, tahqirlangan dunyoni» go‘zal dunyoga aylantirish uchun kurashish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Anvar Obidjon bolalar uchun ko‘plab she’riy ertaklar, shuningdek, dramatik asarlar ham yozgan. YOzuvchining «Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi», «Pahlavonning o‘g‘irlanishi», «Topsang, hay-hay», «To‘tiqul», «Navro‘z va Boychechak», «Samozvaneц», «Qorinbotir» kabi p’esalari Yo‘ldosh Oxunboboev nomidagi Respublika YOsh tomoshabinlar teatrida, Farg‘ona, Qarshi, Guliston, Qo‘qon teatrlarida sahnalashtirilgan. Uning asarlari asosida «O‘zbekfil’m» kinostudiyasi tomonidan «Tilsimoy – g‘aroyib qizaloq», «Dahshatli Meshpolvon» komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she’rlariga bastalangan qo‘shiqlarning asosiy qismi bolalarga bag‘ishlangandir.

Anvar Obidjon — serqirra ijodkor. Uning kattalar uchun yozgan «Ketmagil» (1985), «Bezgakshamol» (1985), «Akanq qarag‘ay Gulmat» (1987), «Erliklar» (1990), «Oltiariq hangomalari» (1999), «Bezgakshamol-2» (2003) to‘plamlaridan joy olgan she’riy va nasriy asarlari ham diqqatga sazovor. Adib kattalar adbiyotida ham o‘z o‘rniga ega.

Anvar Obidjon ijodi qator munaqqidlar tomonidan atroflicha tahlil etib kelinayotgan bo'lsa-da, ko'p qirrali adibning asarlari har bir yo'nalish bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlarni kutmoqda.

Biz mazkur ishda Anvar Obidjonning turli yoshdagi bolalar uchun yozgan she'riy va nasriy asarlari haqidagi fikru mulohazalarimizni bayon etishga xarakat qildik. Unda, asosan, adibning o'zbek bolalar adabiyotiga olib kirgan yangiliklarini ko'rsatishga, kichkintoylar tarbiyasidagi xizmatlarini ta'kidlab o'tishga intildik.

O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon ijodining ayni gullagan pallasida turibdi. U bolalar uchun ham, kattalar uchun ham hali ko'plab ajoyib asarlar yozishiga ishonamiz va bu yo'lda unga kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Xulosa qilin shuni aytish mumkinki, Anvar Obidjon nasriy asarlarida ham kichik hajmlarda katta gap aytishga uringan. Xalq og'zaki ijodi an'analari davom ettirib, ulardagi an'analarni zamonaviy muhit bilan bog'lagan va turli ijtimoiy masalalarni hal etishga uringan. Masalan, "Oltin yurakli Avtobola" nomli fantastic qissasida o'zbek xalq ertaklarida ta'sirlangan holda holda fizik olim kamol Kamtariy va u kashf etgan Avtobola bilan birga bekxo'ja zargar o'rtasidagi o'rtasidagi ziddiyatlar tasviri orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash zarur ijtimoiy-falsafiy umumlashma olgan. Masalan, "ayrimtoshyurak kimsalar oldida jonsiz robotning yuragi oltin" degan fikr shular jumlasidandir.

Yuqoridagi asarlar bir-biridan farq qiladi, ammo ulardagi fantastic-sargizasht va satira va yumor unsurlarning o'zaro aralash kelishi ularni birlashtirib turadi.

X Y J I O C A

Ma'lumki bolalarga bag'ishlangan asarlarning kattgina qismini hajviy asarlar tashkil etadi. O'tgan asrning 80-90 yillarida bolalar shoirlari tomonidan ko'plab hajviy she'rlar, doston, qissalarning yaratilishi o'sha tarixiy davrdagi turli ijtimoiy masalalarning dolzarbliligi bilan bog'liq. Bu davr bolalar she'riyati yaratilgan satirik va yumoristik asarlar mavjud ijodiy an'analar va tamoiylarning qonuniy davomidir. Jumldan, Anvar Obidjon yaratgan asarlarda satirik va yumoristik obrazlar qanday yaratilgani hamda ularda ochib berilgan ijtimoiy masalalar izlanishimiz davomida aniqlandi va ishga kiritildi.

Bitiruv-malakviy ish o'z oldiga ilmiy-nazariy muammo bo'yicha olib borilgan tahlil va talqinlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hajviy asarlarda real hayotda uchraydigan voqealarga ijtimoiy masalar yuklanadi. Yaratilgan hajviylik asosida kishilar munosabatida uchraydigan turli illatlar bilan birga umumxalqqa tegishli bo'lgan katta ijtimoiy masalalar kutuilmagan detallar, holatlar orqali ochib berilgan. Yaratilgan ijtimoiy obrazlar, ilgari surilgan g'oyalar ijtimoiy hayotning asosi sifatida etirofga loyiq. Bu esa Anvar Obidjon hajviylarining ijtimoiy mohiyatini bildiradi.

2. Anvar Obidjon hajviy obraz yaratishdagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi va o'zi ham namuna bo'larli obrazlar yaratdi. Uning yaratgan satiric va yumoristik obrazlari badiiy kashfiyot darajasiga ko'tarildi.

3. Hajviy asarlarda asosiy e'tibot bolalarda turli ijtimoiy masalalardan odobli bo'lish, o'zi xulosa chiqarish; vatanparvalik, fidoiylik, mehnatsevarli, erk, ozodlik uchun kurash fazilatlarini tarbilayashga o'rgatishga qaratilgan. Shuningdek, dangasalaik, chaqimchilik, bezorilik, ochofatlik, mish-mish kabilar salbiy jihatlar ustalik bilan ochib tashlangan.

4. Xalq og'zaki ijodida hajvi timsollarga aylangan hayvon va parrandalarning majoziy obrazlari shartli detallar, turli tasviriy vositalar, o'xshatish, nutqlantirish, jonlantirish kabi orqali yaratilgan.

5. Hikoyalar kitobxon bolada jo'shqin, xushchaqchaq kayfiyat uyg'otadi. U atrofga tiyranroq boqib, bu dunyoda o'zidan-da kichiklar borligini bilib, ularni ehtiyot qilish, asrash-avaylash zarurligini his etadi.

6. Shoir eng avvalo kundalik turmushda mavjud bo'lgan ba'zi illatlarni kulgi vositasida fosh qiladi va bu bilan ularning hajviy qiyofasini yaratadi. Bunda bolalarga xos mish-mish, g'iybat, chaqimchilik, dangasalik, ochofotlik kabi salbiy odatlar asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa haviylikning ijtimoiy mohiyatini I belgilaydi.

7. Shoir illatlarni fosh etishda realistik tasvir bilan birga majoziy obrazlarga ham murojaat qiladi va bolalar tilida hayotning tub ijtimoiy mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Bu esa uning she'rlarini ta'sirchanligini oshirgan.

8. Bolalar she'riyatida qo'llangan ixcham dialogik nutqlar, puxta kompozitsiya, xalqona qofiya hajviy obrazlar yaratishda samarali natija bergan.

9. Anvar Obidjon nasriy asarlarida ham kichik hajmlarda katta gap aytishga uringan. Xalq og'zaki ijodi an'alarini davom ettirib, ulardagi an'alarni zamonaviy muhit bilan bog'lagan va turli ijtimoiy masalalarni hal etishga uringan. Masalan, "Oltin yurakli Avtobola" nomli fantastik qissasida o'zbek xalq ertaklarida ta'sirlangan holda holda fizik olim kamol Kamtariy va u kashf etgan Avtobola bilan birga bekxo'ja zargar o'rtasidagi o'rtasidagi ziddiyatlar tasviri orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash zarur ijtimoiy-falsafiy umumlashma olgan. Masalan, "ayrimtoshyurak kimsalar oldida jonsiz robotning yuragi oltin" degan fikr shular jumlasidandir.

10. Ishimizni bajarish vaqtida o'rganilgan asarlar bir-biridan farq qiladi, ammo ulardagi fantastik-sargizasht va satira va yumor unsurlarning o'zaro aralash kelishi ularni birlashtirib turadi.

11. Bolalarga bag'ishlangan hajviy asarlarda kichikintoylarning fe'l-atvoridagi mayda-chuyda illatlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy taraqqiyotdagi yangilanish bilan bog'liq ma'naviy-ahliqiy masalalarga katta e'tibor qaratilgan.

Ayni shu xususiyatlar estetik tamoyilga aylanib, istiqlol davri bolalar adabiyotining yangicha rivojlanishiga xos an'nlarni shakllantirdi.

Bulardan tashqari, Anvar Obidjon dostonlaridagi qahramonlar mingan xachir, g'iroat, tuya, qo'chqorlar ham o'z xo'jayinlari fe'l-atvorining shakllanishiga munosib hissa qo'shishadi. Asarda inson, hayvon obrazlaridan tashqari doston-qissaning boshdan-oyoq mehmonlaridan bo'lgan bir qator qahramonlarining obrazlari ham borki, ular sof o'zbekcha xarakter va muliy qiyofasi bilan diqqatga sazovor.

Ummuman olganda, Anvar Obidjon hajviy asarlari zamiriga real hayotda uchraydigan turli ijtimoiy masalalarni mohirlik bilan singdirib yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA ILMIY-NAZARIY, ADABIY-TANQODIIY ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. // Шарқ Юлдузи. 2009 й. № 3, 7-12 бетлар.
2. Адабиёт назарияси. 2 томлик. Тошкент, Фан. 1978-1979.
3. Баракаев Р. Жонажоним шеърият. (80-йиллар ўзбек болалар шеърияти ҳақида баъзи қайдлар). -Тошкент. “Чўлпон”. 1997. – 88 б.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. — Тошкент, “Ўзбекистон” , 2002. 558 б.
5. Иброҳимова З. Қувноқликка яширинган изтироблар. –Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2005.
6. Izzar Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 2005
7. Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. Тошкент. Фан, 2007. 272 б.
8. Jo‘raeva G. O‘zbek bolalar she‘riyatida hajviy obraz yaratish mahorat. monografiya.-T: “Muharrir”2011. 112 b.
9. Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеъриятида поэтик маҳоратнинг айрим масалалари. фил.фанлари номзоди дисс. автореферати. –Т. 1995.
10. Умиров Ҳ. Адабиёт назарияси. Тошкент. Фан. 2005.
11. Quronov D.Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Fan. 2007.
12. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, Akademnashr. 2010.

II. BADIIIY ADABIYOTLAR

13. Анвар Обиджон. “Она Ер”. Болаларга шеърлар. Тошкент, “Ёш гвардия” нашриёти, 1974 йил.
14. Анвар Обиджон. “Баҳромнинг ҳикоялари”. (Болаларга шеърлар. Т. “Ёш гвардия” нашр. 1980 йил.

15. Анвар Обиджон. “Эй, Ёруғ дунё...” Болаларга қисса. -Т. Ғафур Ғулом нашриёти, 1983 йил.
16. Anvar Obidjon. Juda qiziq voqea. –Toshkent. “Yulduzcha” nashriyoti. 1987.
17. Anvar Obidjon. Meshpolvon: doston-qissa / – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
18. Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon: She’rlar, doston va ertaklar. – T.: Cho‘lpon. 2006.
19. Анвар Обиджон. Аламазон ва Гулмат хангомаси: Қиссалар, ҳажвиялар. – Т.: Чўлпон, 1992.
20. Анвар Обиджон. Ўқ ўтмас болакай ёхуд олтин юрак: Қиссалар ва ҳикоялар. – Т.: “Шарқ”, 2011. – 400 б.